A.X. HOJIEV

MATERIALLAR QARSHILIGI

Amaliy mashg'ulotlar va hisoblash – grafik ishlari uchun misollar



Toshkent -2019

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

A.X. HOJIEV

MATERIALLAR QARShILIGI
Amaliy mashg'ulotlar va hisoblash – grafik ishlari uchun misollar

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligining 2018 yil 7 dekabrdagi 1000 sonli buyrug'iga asosan 5340200-Bino va inshootlar qurilishi, 5310600-Yer usti transporti tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya qilingan

Toshkent - 2019

KBK 71. 17 (5Ў) H-34

УО'К: 632.44.41

O'quv qo'llanma «Mexanika» kafedrasi yig'ilishida (30.10.2017 bayon № 3) tasdiqlangan va institut uslubiy kengashida chop etishga tavsiya etilgan (bayon № 3 29.12 2017y)

Tuzuvchi: A.X. Hojiev

Taqrizchilar : t.f.d. X.Q.Raxmonov – Bux MTI "Texnologiyalar va jihozlar" kafedrasining professori
t.f.d. N.M.Murodov – TIMI Buxoro filiali "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi professori

ISBN 978-9943-566-59-0

Annotatsiya

Materiallar qarshiligidan tavsiya etilayotgan amaliy mashg'ulotlar uchun misollar va hisoblash grafik ishlari uchun topshiriqlar to'plami hamda ularni echish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining mashinasozlik, qurilish, qishloq xo'jaligini va gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalash xamda texnik mexanika fanini o'rganayotgan talabalari xamda yosh o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada keltirilgan misollar materiallar qarshiligi fanining barcha bo'limlarini qamrab olgan, shundan 100 dan ortiq misollarning echimi keltirilgan. Kitob Binolar va inshootlar qurilishi, Er usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmadagi misollarni tanlashda V.K.Kachurinning «Materiallar qarshiligidan masalalar to'plami » (Toshkent «O'qituvchi» 1998 yil) dan, shuningdek, M.Ergashovning "Materiallar qarshiligidan hisoblash loyihalash ishlari" (Toshkent, Moliya, 2004 yil), S.M.Hasanovning "Materiallar qarshiligidan misollar echish" (O'zbekiston nashriyoti, Toshkent, 2006 yil) kitobidan foydalanildi.

Аннотация

Примерами практических упражнений от материального сопротивления и набора задач для вычислительной графической работы и методологии их решения являются механизация, механизация, строительство, сельское хозяйство и гидромелиоративная работа высших учебных заведений для студентов, изучающих технику и молодых учителей. Примеры, представленные в справочнике, охватывают все аспекты устойчивости материала, с более чем 100 примерами. Книга предназначена для студентов бакалавриата по строительству зданий и сооружений, систем наземного транспорта и их эксплуатации.

Annotation

Examples of practical exercises from the material resistance and a set of tasks for computational graphic work and the methodology for solving them include the mechanization, mechanization, construction, agriculture and hydromeliorative work of higher education institutions for students studying technical mechanics and for younger teachers.

The examples presented in the handbook cover all aspects of material resistance, with more than 100 examples available. The book is intended for students of bachelor's degree in building of buildings and structures, surface transport systems and their exploitation.

Ayrim materiallarni cho'zilishda mustahkamlik chegarasi σ_B va uzayishi δ 1-jadval

Material	σ_B, $\frac{kg}{sm^2}$	δ, %
Bolt va parchin mix uchun po'lat	3400...5500	22 - 25
Quvma temir (po'lat)	3000...4800	8 - 16
Prokat po'lat	3800...6200	18 - 22
Nikelli po'lat	5500...6500	22 - 27
Xromnikelli po'lat	6500...7000	16 - 18
Maxsus po'lat	11000...16000	8 - 10
Cho'yon	1200...2500	-
Qizil mis	2000...2300	38
Bronza	2500	15
Alyuminiy	1000...3500	10 - 20
Qarag'ay tolalari bo'ylab	800	
Granit	30	
Qum tosh	20	
Fisht	7...30	
Beton	2,5...17,5	

Ayrim materiallar uchun cho'zilish va siqilishda ruxsat etilgan kuchlanish

Material	Ruxsat etilgan kuchlanish $\frac{kg}{sm^2}$	
	siqilish	cho'zilish
Qurilish uchun po'lat	1600	1600
Po'lat St 2	1400	1400
Sosna tola bo'ylab	100	70
Dub tola bo'ylab	130	90
Tekstolit	500 - 900	300 - 400
Kul rang cho'yon	1200...1500	
Beton $R = 110\ \frac{kg}{sm^2}$ markali	38	4,5
Beton $R = 170\ \frac{kg}{sm^2}$ markali	60	7

Ayrim materiallar mexanik xarakteristikalari

Material	Elastiklik moduli E, mPa	Puasson koeffitsienti μ	Ruxsat etilgan kuchlanish mPa	Haroratdan chiziqli kengayish koeffitsienti α^0C^{-1}	Solish-tirma og'irlik ρ, n/m^3
Po'lat	$2\cdot10^5$	0,30	160	$125\cdot10^{-7}$	78
Cho'yan	$1,2\cdot10^5$	0,25	130	$104\cdot10^{-7}$	75
Mis	$1\cdot10^5$	0,32	60	$165\cdot10^{-7}$	83
Bronza	$1\cdot10^5$	0,35	90	$170\cdot10^{-7}$	82
Shisha	$0,56\cdot10^5$	0,25			

I-BOB. "MATERIALLAR QARShILIGI" FANIDAN AMALIY MAShG'ULOTLAR

Misol echishning maqsadi. Fanni o'rganishga ajratilgan vaqtning taxminan yarmi misollar echish uchun sarflanishi kerak. Ushbu vaqtni samarali sarflash uchun maqsadli misollarni tanlash, ularni ratsional echish usulini belgilash va albatta nazariy bilim tayyorgarligi bo'lishi lozim. Misol echishning maqsadi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Fizik hodisalarni tushunish, mustaqil ijobiy ishlash, texnikaviy o'ylash va analiz qilish qobiliyatini rivojlantirish.
2. Amaliy savollarni echishda nazariy bilimlar yangiliklarini va ko'nikmalarini tadbiq etish. Bu erda real konstruktsiyalardan nazariy izlanishlar usullari va hisoblashlarida qabul qilingan hamda ruxsat etilgan hisoblash sxemalariga o'tish tushuniladi.
3. O'rganilayotgan fandan olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.
4. Hisoblash texnikasini rivojlantirish.
5. Texnik adabiyot va ma'lumotlar bilan ishlashni rivojlantirish.
6. Texnik hisoblashlarni bajarish bilan tanishish.
7. Texnik savollarni echishda ustuvor qobiliyatni shakllantirish.

Albatta, bu maqsad mustaqil shaklga egadir. Gap shundaki, dars jarayonida ishlangan misollarga o'xshash, lekin auditoriyada ishlanmagan misollar uyga vazifa qilib berilishi mumkin. Bunda talaba mustaqil bir-biriga o'xshash misollarni tahlil qiladi, echadi. Ustuvor qobiliyat rivojlanishi yoki shakllanishi uchun talaba uyda dars davomida echilgan misolga o'xshamagan misolni echishga harakat qilsa, bunda talaba mustaqil ravishda misolni sharti bilan tanishadi, uning hisoblash sxemasini chizadi va misolni echish usullarini izlaydi. Boshqa holat ham yuzaga kelishi mumkin, ya'ni fanni o'zlashtirish boshlanishida o'qituvchi tomonidan talabaga uyga vazifa sifatida murakkab misollar topshirilsa, talaba misol ustida bosh qotirish natijasida fanga qiziqishi pasayishi mumkin.

Misollarni tanlash. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda auditoriyada yoki uyda echiladigan misollarni tanlash katta ahamiyatga ega.

Materiallar qarshiligining tarkibiy qismlari bo'yicha barcha misollar to'plamida hamma mavzularni qamrab olgan juda ko'plab misollar mavjud. Ularning soni dars davomida echilishi mumkin bo'lgan

misollarning sonidan 4-5 barobar ko'p bo'lishi mumkin. Shuning uchun, har bir o'qituvchi dars beradigan mutaxassislikning ish rejasiga binoan yoki o'zining shaxsiy uslubiy xislatiga ko'ra, u yoki bu misollarni tanlashi lozim. Bu o'rinda o'qituvchining o'zi misollar to'plamini yoki variantini tuzib, darsda foydalansa qiziqarli bo'ladi.

Tanlangan misollar ushbu mavzuning barcha savollarini qamrab olishi kerak. Masalalarni tanlash va echish uchun ko'rsatilgan adabiyotlar talabalarga materiallar qarshiligi muammolarini to'liqligicha o'rganish va echimini topishga yordam beradi.

V.K.Kachurinning «Materiallar qarshiligidan masalalar to'plami» asosan masalalarni talabalarning o'zlari echishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, amaliy mashg'ulotlarda masala echish uchun asosiy darslik.

M. Ergashevni «Materiallar qarshiligidan hisoblash – loyihalash ishlari» o'zbek tilida yozilgan va chop etilgan birinchi to'plam bo'lib, materiallar qarshiligining hamma bo'limlariga oid hisoblash – loyihalash ishlari, masalalari va ularni bajarish namunalari keltirilgan. S.Xasanov va A.Nabievlarning materiallar qarshiligidan masalalar echish qo'llanmasi lotin alifbosida chop etilgan. Bir qism savollar dars vaqtida o'rganilsa, ayrim savollar uyga vazifa tarkibida ko'rib chiqilishi mumkin.

Materiallar qarshiligi fani bo'yicha tuzilgan masalalar to'plamida ko'p variantli misollar ham keltirilgan. Bunday misollarni dars vaqtida echish samara bermaydi, ularni uy vazifasi yoki hisoblash-grafik ishi ko'rinishida bajarish qulaydir. O'qituvchilik faoliyatini boshlagan yosh pedagoglar ko'p variantli misollarni echishlari va tajriba orttirishlari mumkin. Keyinchalik boshqa turdagi mavzularni to'liq yoritadigan misollar to'plamini echishga o'tishlari lozim.

Misollarni mavzusi, ya'ni echilishi shart bo'lgan muammoni qo'yilishi murakkab emas. Lekin quyidagi fikrlarni keltirish lozim deb o'ylaymiz:

Birinchidan, bakalavrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida nazariy (mutaxassislikka bog'liq) material to'liq va chuqur yoritilmasligi mumkin, ko'p vaqt talabalarning uy vazifasi yoki hisoblash-grafik ishiga yaqin mavzular bo'yicha misollar echiladi.

Ikkinchidan, ayrim vaqtlarda asosan nazariy materiallarga e'tibor beriladi va aniq bitta tahlil yoki ikkinchi formula bilan echiladigan misollar tahlil etiladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, hajmi kichik yoki oddiy misollarni tanlash va nazariy materiallarni chuqur o'zlashtirmaslik natijasida, talaba tanish va oddiy misollar turkumiga o'rganib oladi va u murakkabroq misollardan

hadiksirab qoladi. Masalan, materiallar qarshiligidan misol echishni mustaqil bajara olgan talaba mashina detallari fanidan misol echishda qiyinchilikka uchrab qolishi mumkin.

Uchinchidan, amaliy mashg'ulotlarda tadbiq etilmagan nazariy bilimlar chuqur va mustahkam emas. Bunday sharoitda talaba ham, o'qituvchi ham og'ir vaziyatda qoladi.

Misollarni murakkabligi yoki boshqa ko'rsatkichlarga binoan tanlash hamma vaqt ham samarali bo'lavermasligi mumkin. Shuning uchun misollarni quyidagi guruhlarga ajratishni tavsiya etamiz:

I guruh. Bu guruhdagi misollar hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, hajmi kichik va oddiy bo'lib, maqsadi formulalarni takrorlash, turli o'lchov birlikdagi kattaliklar bilan hisoblashni o'rganish. Masalan, buralishda mustahkamlik shartidan foydalanib val diametrini aniqlang.

II guruh. Bu guruhdagi misollar oddiy, savolning fizik mohiyati va echish usuli aniq.Masalan, yuklanishni har xil turlarida statik aniq misollarda mustahkamlikka hisoblash. Bu guruhdagi misollarni ham murakkabligi turlicha bo'lgan misollarga ajratish mumkin. Masalan, cho'zilish yoki siqilishda ichki bo'ylama kuchni aniqlash va epyurasini ko'rish, egilish deformatsiyasida ko'ndalang kuch va eguvchi moment epyuralarini qurishdan ancha oson. Bundan tashqari, ko'ndalang kuch va eguvchi momentini aniqlash qoidasi, bo'ylama kuchni aniqlash qoidasidan mutlaqo farq qiladi va murakkabdir.

III guruh. Bu guruh misollarning murakkabligi turlicha bo'lib, ular mavzuga bog'liq. Masalan, statik noaniq misollarda murakkablik, misolni echishni individuallashgan va uning fizik-geometrik mohiyatini aniq tushunish va tasavvur etishdadir. Misolni individuallashgan, har bir statik noaniq misolni echishning o'ziga xos usulni tadbiq etishligida. Bu guruh misollariga mo'rt materiallardan tayyorlangan balkalarni mustahkamlikka hisoblash, o'zgaruvchan balkalarda kesimni tanlash kiritilishi mumkin.

IV guruh. O'ta murakkab misollar bo'lib, ularni echish uchun nostandart usullar tadbiq etiladi. Bunday misollarga fanlar olimpiadalaridagi yoki fan to'garaklarida echiladigan misollar kiritiladi.

V guruh. Og'zaki echiladigan misollar, hozirgi vaqtda tadbiq etilayotgan oddiy ko'rinishdagi test savollari.

Misollarni tanlash to'g'risida mulohaza yuritganda shuni nazarda tutish kerakki, misollar rivojlanadigan, yangilik kiritilishi mumkin bo'lgan bo'lishi lozim. Juda katta matematik hisoblashlari bo'lgan misollarni tanlamaslik kerak. Chunki bunday misollarni echishda talaba matematik

hisoblashga e'tiborini kuchaytirib, misolning fizik yoki geometrik mohiyatini esidan chiqarib qo'yishi mumkin. Shu bilan birga, hisoblash elementi juda kam bo'lgan, faqat formulalarni yoki tenglikni hosil qilish bilan bog'liq bo'lgan misollarni ham tanlamaslik kerak. Chunki analiz qilinishi lozim bo'lgan material yoki inshoot konstruktsiyasining elementi – o'lchamlari ma'lum son qiymatlari bilan belgilanadi.

Auditoriyada misol echishni tashkillashtirish. Misol echishning shakllari va ular to'g'risida qisqa fikr bildiramiz.

O'qituvchining o'zi misol echsa. Bu shakl fanning har bir mavzusida tadbiq etiladi. O'qituvchi doskada mavzu bo'yicha birinchi misolni qanday echsa, talabalar ushbu yoki boshqa misolni echish usulini shunday tushunib oladi.

O'qituvchi misol shartini yozib olishdan va tushunishdan boshlab, uni echish usulini to'liq yoritishi, matematik hisoblashlarni bajarib, misol natijalarini analiz etish bilan tugatishi lozim. Hech kachon o'qituvchi misolni echish davomida, uni to'liq bilishligini, shuning uchun misolni yoddan ishlab berayotganligini talabalarga bildirmasligi kerak. Balki misolni echishda o'qituvchi talabalarga savollar bilan murojaat qilib, ularni ham misol echishda qatnashayotganligini bildirishi va mustahkamlashi hamda bu vaziyatni talaba mustaqil misol echishida o'qituvchining uslubini takrorlanishini ta'minlashi lozim. O'qituvchi talabada misol echishni ijobiy shakllantirishi kerak.

Doskada talaba misol echsa. Bu shakl to'liq o'qituvchining nazoratida bo'ladi va ayrim hollarda uning yordami seziladi. Bunda barcha talabalarning faolligi talab etiladi, ulardan misol echish tartibini tushuntirishni, hisoblash natijalarini tekshirishni talab etish kerak.

Talaba o'tirgan joyida misol echsa. Bu shakl albatta misol tahlil qilingan va u doskada talaba yoki o'qituvchi tomonidan ishlanayotgan bo'lsa, tadbiq etiladi. Bunday paytda o'qituvchi talabalarning faoliyatini nazorat qilib turadi. Lekin ushbu shakl vaqtni kamligi uchun tadbiq etilishi cheklangan.

Tajriba qurilmasidan foydalanib misol echish. Talaba nazariy misolni echadi va tajribada sinab ko'radi. Nazariy va tajriba natijalari solishtiriladi. Bu shakl katta ahamiyatga ega va u tajriba ishini o'tkazish darsidir. Uning samarasini oshirish uchun tajriba qurilmalari to'liq va benuqson ishlashi kerak.



Misol shartini yozish va tahlil qilish. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun faqat misolni tanlash va uni echish emas, balki misolning shartini muhokama va tahlil qila bilish lozim. Bu esa talabaning texnik mushohada qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Misol tariqasida shkivlar o'rnatilgan transmission valni hisoblashni olamiz. Terminni tushuntirish, tasmalarning

taranglik kuchlari, ularning yo'nalishi va taranglik kuchlarining valga bosimi to'g'risida tushuncha berish lozim. Misolning amaliy mohiyati, balki hali o'rganilmagan mashina detallari fani asosida transmission vallarning qo'llanilish sohasi to'g'risida talabalarga ma`lumot berish usuli bilan, ularda misolga nisbatan qiziqish uyg'otiladi va bu holat misolni echishda o'z aksini topadi. Misolni echishda lozim bo'lgan ayrim qisqartirish va cheklanishlar hamda o'zgarishlarni talabalarga oldindan tushuntirish o'ta ahamiyatlidir.

Ayrim misollarda fizik jarayon qisqartirilishi yoki ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Bu vaziyatni tushuntirish va tahlil etish zarur bo`ladi. Masalan: massasi 500 N bo'lgan yuk 2 s davomida vertikal holatda 10 m balandlikka ko`tarildi. Berilgan ruxsat etilgan kuchlanishdan foydalanib, kanatning talab qilingan diametri hisoblansin. Bu misolda jarayonni fizik nuqtai nazaridan harakat xarakteri hisoblash natijasiga ta`siri juda kichik bo'ladi. Misol cheklanish evaziga echildi. Misollarni tahlil qilishda ularning shartida amaliy mohiyatini ochib berish kerak bo'ladi. Bu esa talabada misolga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Masalan, berilgan materialdan va o'lchamda tayyorlangan val uchun ruxsat etilgan momentni ko`rib chiqaylik: metallni kesishning yangi rejimiga o'tish munosabati bilan, stanok valikining mustahkamlik sharti uchun qanday eng katta ruxsat etilgan burovchi moment to'g'ri keladi. Metallni kesish sifati uning sirtiga ishlov berish darajasini belgilaydi, bu esa o'z navbatida valikning mustahkamligiga ta`sir etuvchi omildir.

Misol shartini muhokama qilish yoki tahlili ham rivojlanuvchan, ham tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi kerak. Masalan: mustahkamlikka ehtiyotlik koeffitsienti birlamchi qabul qilingan qiymatiga ko'ra 10% ga kamaytirilsa, balkaning og'irligi qanday o`zgaradi. Bu misolda ehtiyotlik koeffitsientini kamaytirish katta qurilishlarda qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish mumkin.

Misolni ortiqcha va etishmaydigan shartlari to'g'risida. Ayrim misollarda uni echish uchun kerak bo'lmagan, ya`ni ortiqcha shartlar berilgan bo'ladi. Masalan, buralishda mustahkamlikka hisoblanayotgan valning uzunligi yoki detalning materiali bilan birga ruxsat etilgan kuchlanishining qiymati berilgan.

Misolni shartida ortiqcha ma`lumot yoki qiymatlar berilishi foydalidir, chunki talabani o'ylab tahlil qilishga o'rgatadi, texnik muammoni echishda ular kerak emas, lekin konstruktsiyani to'liq tasavvur qilish uchun hamda misol echish davomida talaba tegishli formulani izlab topishida ushbu ma`lumot samara beradi.

Ayrim hollarda to'liq ma'lumot bo'lmagani ma'qul, chunki real loyihalashda konstruktorning o'zi bir qancha kerak bo'lgan ma'lumotlarni tanlashini talaba bilib oladi. Bunday misollar mashina detallari fanida uchraydi. Materiallar qarshiligida qo'shimcha ma'lumotlarni kitoblardan qidirib topiladi. Bunda yuklanish xarakteri va material ko'rsatilgan, lekin ruxsat etilgan kuchlanish berilmagan. Masalan, ichi g'ovak valning uzatayotgan quvvati va uning aylanish chastotasi berilgan. Valning diametri hisoblansin. Buning uchun valning o'rtacha diametrini, uning ichki va tashqi diametrlari bilan tashkil qilgan nisbatidan foydalaniladi.

Misolni faqat sharti ahamiyatli deb tushunmaslik kerak, balki uni to'liq ma'nosini saqlagan holda qisqa yozish kerakki, talaba har daqiqa to'liq shartni tiklay olsin. Kitobda misolning shartı to'liq yozilganligi uchun, uni yozish shart emas deyish noto'g'ri. Ayrim hollarda yozish elementi deb, sxema yoki chizmani tuzish tushuniladi. Eng yomon holat chizmani yozuv asosida tushuntirish yoki uning mazmunini yoritish. Oddiy misollarda shartni o'qib, uni yozib (doskada yoki daftarda) talaba tegishli chizmani bajara olishi kerak. Murakkab misollarda bu savolni echimi juda qiyinlashadi. Chizmalarda o'lchamlarning shartli belgilarini berilishi yozuvni qisqartiradi. Konstruktiv yoki yarim konstruktiv sxemalardan hisoblash sxemalariga o'tish yozuv asosida emas, balki misolni echish elementi sifatida bajariladi. Masalan, valni buralish bilan egilishga hisoblash.

Misol echish usulining asosiy tamoyillari. Auditoriyada o'qituvchi yoki talaba tomonidan misol echishni asosiy tamoyillariga: shartni yozish, misol echishni yozishning shakli va ketma-ketligi, hisoblash ishlarining bajarilishiga rioya qilishlari kerak. Ushbu uslubiy tamoyillar ketma-ket va astoydil bajarilishi kerakki, natijada talaba uyda yoki doskada misolni mustaqil echishda quyida keltiriladigan uslubiy ko'rsatmani tadbiq etsin.

Misolni sharti yozilgan va tahlil qilingan vaziyat uchun quyidagi uslubiy tamoyillarni keltiramiz:

1. Misol «sifatli echilgan» bo'lishi kerak. Misolni echish boshlanishida, talabada «Qaysi formula bilan misolni echish mumkin» degan savol paydo bo'ladi. Agar bu savolni talabaga o'qituvchi bersa, eng yomon vaziyat sodir bo'ladi. «Sifatli echilgan» misol deganda, mohiyati tahlil qilingan va echish tartibi so'zma-so'z izohlangan misol, formula esa bildirilgan fikrning matematik ifodalanishi va u tegishli hisoblashlardan keyin sonli echimga olib keladi.



1-rasm.F- ta'siridagi sterjenlar.

Misol. Siquvchi F kuch po'lat va bronza sterjenlarga (*1-rasm*) P-detali orqali ta'sir qiladi. Sterjen ko'ndalang kesimining o'lchamlari topilsin ($A_p=2A_b$). Po'lat va bronza materiallarining elastiklik modullari bir xil emas, ya'ni po'lat materialining elastiklik moduli E_p bronza materialining elastiklik moduli E_b dan katta. Demak, po'lat sterjen bo'lmaganida bronza sterjeni F kuch ta'siridan ko'proq siqilar edi. Lekin ham bir xil uzayadi. F- siquvchi kuchning har kaysi sterjenga ta'sirini topish uchun bitta tenglama tuzish mumkin: $F_b + F_n = F$ Bitta tenglamada ikkita noma'lum kuch bor. Demak, misol statik noaniq. F_b va F_p kuchlarni topish uchun qo'shimcha deformatsiya tenglamasini tuzamiz. Tashqi siquvchi kuch ta'sirida har ikkala sterjen ham bir xil masofaga siqiladi. Guk qonuniga asosan: $\Delta\ell = \frac{F_b\ell}{E_bA_b} = \frac{F_n\ell}{E_nA_n}$

Endi muvozanat va deformatsiya tenglamalarini birgalikda echib, misolning shartiga tegishli savollariga javob topiladi.

2. Misol umumiy holda echilgandan keyin matematik hisoblashga o'tamiz. Hisoblash bandma-band ketma-ketlikda olib boriladi va har bir band uchun oldindan hisoblanishi lozim bo'lgan formula belgilanadi. hisoblash natijalari alohida ajratib yoziladi.

Murakkab va hajmi katta matematik hisoblashni bajarishda yordamchi hisoblashlar olib boriladi. Yordamchi hisoblashlar umumiylashtiriladi (mujassamlashadi) va sonli natijaviy qiymat kelib chiqadi. Bu erda misol echishni usuli va uni tashkil etish muammosi to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Gap shundaki, mustaqil misol echishda talabalarni birdaniga oq varaqda bajarishga o'rgatish kerak, chunki birlamchi hisoblash qora qog'ozda bajarilsa, ortiqcha vaqt va ish talab etiladi. Formulaga barcha kattaliklarning son qiymatlarini qo'yishdan oldin, ularning o'lchov birliklarini bir xil sistemaga keltirilishi lozim. Buni og'zaki bajarish kerak. Masalan, 100 kN kuch bilan cho'zilayotgan sterjenning uzayishi aniqlansin, agar $l = 2m, d = 60mm, E = 2\cdot10^5 mPa$ bo'lsa, hisoblash formulasi – $\Delta l = \frac{N\cdot l}{EA}$ ni $\Delta l = \frac{100000\,N\cdot 2m}{2\cdot10^{11}\,Pa\left(3{,}14\cdot\frac{0{,}06^2}{4}\right)m^2}$

- ko'rinishda yozmaslik kerak. Hozirgi vaqtda ko'plab xorij adabiyotlardagi hisoblash formulalarida o'lchov birliklar keltiriladi

To'g'ri yozuv $\Delta l = \dfrac{100 \cdot 10^3 \cdot 2}{2 \cdot 10^5 \cdot 10^6 \cdot \dfrac{3{,}14 \cdot (60 \cdot 10^{-3})^2}{4}} = 0{,}354 m$

Sterjen kesim yuzasini alohida hisoblash shart emas, vaholanki, ayrim hollarda, masalan, murakkab shaklli kesim yuzalarining geometrik xarakteristikalari alohida hisoblanib, natijasini formulaga keltirib qo'yish mumkin. Hisoblash jarayoniga juda katta e'tibor berish bilan birga quyidagilarga amal qilish lozim:

-hisoblash natijasini juda katta aniqlik bilan yakunlashni izidan quvlamaslik. Bunga o'zingizni ham talabalarni ham o'rgatish kerak. Xususiy hollarda verguldan keyin uch xonali aniqlik bilan hisoblash amalini bajarish lozim. Asosan, yaxlitlash va yaqinroq rakamlar hisoblansa bo'ladi;

-talabalarni og'zaki hisoblashga o'rgatish kerak;

-olingan natijalarni tahlil qilishni, ularni to'g'ri ekanligini muhokama etishni o'rgatish lozim;

-hisoblash amaliga rioya qilish, ya'ni kasrni surati va maxrajini ketma-ketlikda bajarish kerak.

Hisoblashni aniqlik bilan bajarilishiga izoh berish talab etilishi mumkin. Masalan, cho'zilish yoki siqilish, egilish deformatsiyalarida statik noaniq misollarni echishda tayanch nuqtalardagi deformatsiyalarni nolga teng bo'lishini keltirib chiqarishda, nazariy hisoblash va tajriba ishlarining natijalarini taqqoslashda aniq hisoblash natijasiga erishish talab etiladi. Chunki noaniqlik bilan bajarilgan hisoblash natijasi xatolikni olib keladi.

3. Misol echimining sonli qiymatlari hisoblash natijasiga ko'ra, uni xulosa qilishni talab etadi.

Natijani tekshirish va tahlili quyidagilardan tashkil topadi:

a) echimni to'g'ri va aniqligim baholash, talabaga texnik misollarni echishni va ularning natijalarini baholashni, ayrim hollarda, tanqidiy mushohada yuritishni o'rgatadi;

b) echimni nazorat etish usullarini ishlab chiqish va mushohada qilish. Masalan, ko'ndalang kuch va eguvchi moment epyurlari asosida ular orasidagi differentsial bog'lanishlarni bajarilishi nazorati. Agar misol mustahkamlikni tekshirish nuqtai nazaridan olib borilayotgan bo'lsa, ichki kuch faktorlarining epyurlari va differentsial bog'lanishlarini tekshirishni

misol echimining natijasini kutib o'tirmasdan, balki epyura qurilishi bilan amalga oshirilishi kerak;

v) nazariy, amaliy va texnik qoidalarni tahlil qilish nuqtai nazaridan echimni mushohadasi. Masalan, val minutiga n marotaba aylanib N, kvt quvvatni uzatadi. Berilgan ruxsat etilgan kuchlanishdan foydalanib, val kesimining uch xil shakli topilsin. aylana, halqa ($c = \frac{d_1}{d}$ berilgan), kvadrat; har bir valning massalari solishtirilsin. Agar valning markaziy kesimidagi materialini olib, uning og'irligini 16% kamaytirsak, hosil bo'lgan halqasimon kesimning sirtidagi eng katta kuchlanish 26% oshar ekan. Radiusi *R=350 mm* bo'lgan halqasimon val radiusi *R=300 mm* bo'lgan valdan 53,4 % ga engildir. Shunga qaramasdan halqasimon kesim kam ishlatiladi. Kvadrat kesimli val ishlatilmaydi. Bu erda ishlatil-maslik mustahkamlik va texnologik nuqtai nazardan isbotlanmoqda;

g) ayrim detal va o'lchamlarni standartlashtirilishini esdan chiqarmaslik kerak. Natijaviy qiymatlarni yaxlitlamasdan va GOST bilan solishtirmasdan qabul qilmaslik kerak. Masalan, valning diametri *d=44,2 mm*, GOST bo'yicha *d=45 mm* qabul qilamiz.

14. Yuqorida keltirilgan mulohazalar, shak-shubhasiz «Materiallar qarshiligi» fanida misol echish usullarini to'liq kamrab olmaydi. Ma'lumki, har bir misolni echishda o'zining xususiy usullarini tadbiq etishni talab etadi. Shuning uchun o'qituvchilar fanning alohida bo'limlarida misol echish usullarini ishlab chiqishlari va tadbiq etishlari mumkin.

KESISh USULI

Inshoot konstruktsiyalarini mustaxkamlikka va bikrlikka hisoblash ichki kuchlarni aniqlash usuli asosida olib boriladi.

Ichki kuch deb, tashqi kuch ta'sirida jism zarrachalarining o'zaro ta'sirlashuvining intensivlashuviga aytiladi. Ichki kuchlar kesish usuli bilan topiladi.



2-rasm. Kesish usuli

Kesish usulining tartibi.

Bir kancha kuchlar bilan yuklangan brusning ixtiyoriy kesimidagi ichki kuchni aniklash tartibi.

1.Brusni ixtiyoriy kesim yuzasidan ***m – m*** tekislik bilan fikran kesib ikkita bo'laklarga ajratamiz va bir bo'lagini tashlab yuboramiz.

2.Natijada, brusning olib kolingan qismida tashlab yuborilgan kismning ta'siri yo'qotiladi va olib qolingan qismda muvozanat holati buziladi.

3. Olib qolingan qism muvozanatini ta'minlash uchun uning kesilgan yuzasiga tashlab yuborilgan qism ta'sirini bosh kuch vektori $\overline{R}$ va bosh moment vektori $\overline{M}$ ko'rinishida keltirilishi lozim.

4. Bosh kuch vektori va bosh moment vektori olib qolingan qism uchun ichki kuch hisoblanadi. $\overline{R}$ va $\overline{M}$ lar *X, Y, Z* o'qlarida *Nx, Qy, Qz, Mx, My, Mz* tashkil etuvchilarga ajratiladi:

Nx, Qy, Qz, Mx, My, Mz – **ichki kuch** faktorlari deyiladi

N_x – bo'ylama kuch, brusning *x* o'qi bo'ylab yo'nalgan. N_x – ichki bo'ylama kuch cho'zilayotgan yoki siqilayotgan brusning ko'ndalang kesimida hosil bo'ladi. (*a – rasm*). Q_y; Q_z – brusning *x* o'qiga perpendikulyar joylashganligi uchun **ko'ndalang** yoki **kesuvchi** (*siljituvchi*) **kuch** deyiladi.

M_x – burovchi moment buralish deformatsiyasida brusning ko'ndalang kesimida hosil bo'ladi. (*b – rasm*). M_y va M_z – eguvchi momentlari egilish deformatsiyasida brusning ko'ndalang kesimida hosil bo'ladi (*v– rasm*). Ichki kuch faktorlarini topish uchun brusning ajratilgan qismidagi barcha kuchlardan muvozanat shartlari tuziladi.

$\sum X = 0$ $\sum U = 0$ $\sum Z = 0$	$\sum M_x = 0$ $\sum M_u = 0$ $\sum M_z = 0$		

I. ChO'ZILISh VA SIQILISh

Mustahkamlikka hisoblashga oid masalani auditoriya va uyda echish uchun tanlash kerak. Darslik, qo'llanma va masalalar kamroq bo'lsa, o'qituvchinng o'zi bir nechta masalani tuzib olishi mumkin. Lekin V.K. Kachurining "Materiallar qarshiligidan masalalar to'plami"da bu mavzuga oid masalalar varianti etarli miqdorda berilgan.

Ruxsat etilgan yukni hisoblashga oid masala echishda, ko'ndalang kesim yuzalarning o'lchamlarini aniqlashda turli kesimli sterjenlar sistemasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Sterjenlar sistemasiga oid masalani echishda kesish usulidan foydalanish kerak va siqilishga hisoblashda ularning ustuvorligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ichki bo'ylama kuchni topish. Cho'zilish va siqilishda ichki bo'ylama kuch – brusning ko'ndalang kesimidagi barcha normal kuchlarning teng ta'sir etuvchisi. Bo'ylama kuch – brusning kesilgan ko'ndalang kesimidan bir tomonda olib qolingan tashqi kuchlarni ushbu sistemaning bo'ylama o'qiga proektsiyalarining algebraik yig'indisiga teng. Amaliyotda uchraydigan konstruktsiya qismlarining ko'pchiligi ko'ndalang kesimda hosil bo'ladigan ichki cho'zuvchi yoki siquvchi bo'ylama kuchlarini kesish usulidan foydalanib, sistemaning ajratilgan bo'lagini muvozanat shartidan topiladi.

$$\sum X = -F + N = 0$$

Bo'ylama kuch N deb, sterjenning ko'ndalang kesimida hosil bo'lgan normal kuchlanishlarning teng ta'sir etuvchisiga aytiladi

$$N = \int_A \sigma \cdot dA \qquad (1)$$

Cho'zilishda (siqilish) brus materialining zarrachalari bo'ylama bir xil masofaga masofaga ko'chadi . Shuning uchun, normal kuchlanish brusning kesim yuzasida teng tarqaladi.

Kuchlanish – sterjenning kesim yuzasida ichki bo'ylama kuchni tarkalish konuniyatini belgilaydi. Kuchlanish deb bir birlik yuzaga to'g'ri keladigan kuchning miqdoriga aytiladi.

Cho'zilish va siqilishda sterjenning kesim yuzasida normal kuchlanish hosil bo'ladi: $\sigma = \frac{N}{A}$, $\frac{kN}{m^2}$ (2)

Agar cho'zuvchi yoki siquvchi kuch maksimumga erishsa, ya'ni chegaraviy qiymatga chiqsa $N = N_{max}$ bo'lsa, normal kuchlanish ham maksimal chegaraviy qiymati $\sigma_{max} = \frac{N_{max}}{A}$ ga erishadi. Konstruktsiyada xavfli holat emirilish sodir bo'ladi.

Konstruktsiyada xavfli holatni cheklash uchun elementining qesim yuzasidagi eng katta normal kuchlanish σ_{max}, shu konstruktsiya materiali uchun ruxsat etilgan kuchlanishdan katta bo'lmasligi kerak, ya'ni

$\sigma_{max} \le [\sigma]$ yoki $\sigma_{max} = \frac{N_{max}}{A} \le [\sigma]$ (3)

(3) formula cho'zilish yoki siqilishda mustahkamlik shart

Ruxsat etilgan kuchlanish konstruktsiyani xavfsiz ishlashini ta'minlaydi va uning qiymati konstruktsiyaning materialiga bog'liq bo'lib tajriba asosida belgilanadi. Cho'zilish va siqilishda loyihaviy hisoblashda sterjennning

kesimi tanlanadi: $A \ge \frac{F}{[\sigma]}$ (4)

Ruxsat etilgan yuk hisoblanadi: $F_{max} = [\sigma] \cdot A$ (5)

Deformatsiya. Cho'zilish va siqilish sterjennning bo'ylama va ko'ndalang o'lchamlarini o'zgarishi bilan xarakterlanadi.



Masalan, sterjenni cho'zilishida uzun-ligi ortadi, ko'ndalang kesimi esa qisqaradi. Siqilishda teskari holat, ya'ni sterjenning uzunligi qisqaradi, ko'n-dalang o'lcham esa kattalashadi

Sterjen bo'ylama va ko'ndalang o'lchamlarining o'zgarishi bo'ylama va ko'ndalang deformatsiyalar deyiladi. Absolyut va nisbiy deformatsiyalar mavjud. Absolyut uzayish (deformatsiya) sterjenni cho'zilganidan keyingi va boshlang'ich uzunliklarining farqi bilan belgilanadi. Absolyut qisqarish ko'ndalang kesimning boshlang'ich va deformatsiyadan keyingi o'lchamlar farqi bilan belgilanadi.

$\Delta\ell = \ell_1 - \ell_0$ bo'ylama va $\Delta a = a_0 - a_1$ ko'ndalang deformatsiyalar absolyut deformatsiya deyiladi.

Bir birlik uzunlikka to'g'ri keladigan absolyut uzayishga nisbiy bo'ylama uzayish deyiladi.

$\varepsilon = \frac{\Delta\ell}{\ell}$ nisbiy bo'ylama uzayish va $\varepsilon' = \frac{\Delta a}{a}$ nisbiy ko'ndalang qisqarishlar nisbiy deformatsiya deyiladi.

Nisbiy ko'ndalang deformatsiyani nisbiy bo'ylama deformatsiyaga nisbati o'zgarmas miqdor va Puasson koeffitsienti deyiladi.

$$\mu = \frac{\varepsilon'}{\varepsilon} \qquad (6)$$

Sterjenning uzunligi ham, absolyut cho'zilishi ham (mm) yoki (sm) hisobida o'lchanganligi uchun nisbiy bo'ylama deformatsiya o'lchovsiz son bo'ladi.

Agar, sterjenning cho'zilishi faqat elastik deformatsiya chegarasida qaralsa, cho'zuvchi kuch bilan absolyut uzayish orasida to'g'ri propoptsionallik bog'lanish bo'ladi. Bu bog'lanish inglız olimi Robert Guk qonuni deyiladi: $\Delta\ell = \frac{N\ell}{EA}$ (7)

Elastik bo'ylama uzayish, ichki bo'ylama kuch va sterjenning uzunligiga to'g'ri va bikrligiga teskari proportsional.

(7) formulada EA sterjenning cho'zilish yoki siqilishdagi bikrligi. Elastik jismlarda, normal kuchlanish nisbiy deformatsiyaga to'g'ri proportsional $\sigma = E \cdot \varepsilon$ (8)

Statik aniq sistemalar

Tarkibidagi noma'lum reaktsiya va ichki kuchlarining soni statikaning muvozanat tenglamalari soniga teng yoki undan kam bo'lgan sistemalar statik aniq sistemalar deyiladi.







Ichki kuchlarni aniqlash uchun kesish usulidan foydalanamiz

pastki pog'ona

yuqori pog'ona

Ichki kuchlarni aniqlash uchun olib qolingan sistemaning yuklanish sxemasiga asosan statikani muvozanat tenglamalarini tuzamiz

$$\sum x = N_1 \sin\alpha - N_2 \sin\alpha = 0$$
$$\sum y = N_1 \cos\alpha + N_2 \cos\alpha - F = 0$$

$$\sum x = N_1 - F = 0 \qquad \sum x = N_1 - F - F = 0$$

Noma'lum kuchlar soni muvozanat tenglamalari soniga teng

Birinchi tunglamadan $N_1 = N_2$

e'tiborga olsak, $N_1 = N_2 = \dfrac{F}{2\cos\alpha}$

hosil bo'ladi

$$N_1 = F \qquad N_2 = 2F$$

Ichki kuchlarni har bir qiymati uchun normal kuchlanish va absolyut uzayishni aniqlaymiz

birinchi sterjen (pog'ona) $\sigma^{I} = \dfrac{N_1}{A_1}$ va $\Delta\ell_1 = \dfrac{N_1 \cdot \ell_1}{E \cdot A_1}$

ikkinchi sterjen (pog'ona) $\sigma^{II} = \dfrac{N_2}{A_2}$ va $\Delta\ell_2 = \dfrac{N_2 \cdot \ell_2}{E \cdot A_2}$

$$\left(\Delta\ell_2 = \Delta\ell_1 + \frac{N_2 \cdot \ell_2}{E \cdot A_2}\right)$$



IY- IY oraliq. $\sum X = 0$

$N_4 + F - q \cdot 3a - F - 2q \cdot x = 0$

$x = 0$ bo'lsa $N_4 = 3qa$

va $x = 2a$ bo'lsa

$N_4 = 7qa$

N_X - ichki bo'ylama kuchni brus o'qining uzunligi bo'ylab o'zgarishining tanlangan masshtabdagi grafikasi uning epyurasi deyiladi.

5 – rasm. Ichki kuchni aniqlash texnologik xaritasi
a) pog'onali brusni yuklanish sxemasi;
b) pog'onali brusni kesish tartibi;
v) pog'onali brus uchun ichki bo'ylama kuch epyurasi

4-misol. Po'latdan tayyorlangan sterjenlar sistemasidagi B nuqtaning to'liq ko'chishini toping (6-rasm - *a*) .

$$\ell_1 = \ell_2 = 3m, \quad A_1 = A_2 = 1 \cdot 10^{-4} m^2, F = 10kN, \qquad E = 1 \cdot 10^8 \frac{kN}{m^2}$$

echish. Ichki kuchlarni oldingi misolning echimiga asosan hisoblaymiz: $N_1 = \frac{F}{2 \cdot \cos 30^0} = \frac{10}{2 \cdot 0{,}866} = 5{,}77kN$

Deformatsiyani hisoblash. F kuch ta`siridan sterjenlar uzayadi (6-rasm-*v*) B nuqta B_1 nuqtaga ko'chadi. B nuqtadan birinchi sterjenni uzaygan holatiga tik chiziq o'tkazib, B^1 nuqtani hosil qilamiz. Bu erda $BB^1 \perp B_1B^1$ va ΔBB_1B^1 dan $BB_1 = \frac{B_1B^1}{\cos 30^0}$

Bu erda $B_1B' = \Delta\ell_1$ birinchi sterjenni absolyut uzayishini Guk qonuni orqali ifodalaymiz: $\Delta\ell_1 = \frac{N_1 \cdot 3}{EA} = \frac{5{,}77 \cdot 3}{1 \cdot 10^6 \cdot 1 \cdot 10^{-4}} = 17{,}31 \cdot 10^{-4} m$

B nuqtaning to'liq ko'chishi $BB_1 = \Delta = \frac{17{,}31 \cdot 10^{-4}}{0{,}866} \approx 20 \cdot 10^{-4} m$



6-rasm



7-rasm



8-rasm

Javob: Chap uchastkada σ= - 53,1 MPa, o'ng uchastkada σ= - 39,7 MPa; $\Delta l = 0{,}132$

5-misol. 7-rasmda ko'rsatilgan po'lat sterjenning barcha uchast-kalaridagi kuchlanishlarni va uning to'liq deformatsiyasini toping. Sterjen ko'ndalang kesim yuzasi 5 sm^2.
Javob: Chap uchastkada σ = - 40 Mpa, $\Delta l = 0$.

6-misol. 8-rasmda tasvirlangan pulat sterjenning o'ng qismidagi kesimi yaxlit dumaloq, chap qismidagi kesimi halqasimon. Sterjenning ikkala qismidagi kuchlanishlar va to'liq uzayi-shini toping

7-misol. 9-rasmda ko'rsatilgan sterjen o'ziga qo'yilgan yuk ta'sirida 0,2 mm cho'ziladi. Alyuminiyning elastiklik moduli $0{,}75 \cdot 10^{11}$ N/m^2, bronzaniki $1{,}1 \times 10^{11}$ N/m^2, qabul qilingan yuk



qiymati R aniqlansin.
javob: 36,7 kN
9-rasm

8-misol. Diametri 30 mm.li dumaloq ko'ndalang kesimli po'lat sterjen sinash mashinasida 125 kN zo'riqish bilan cho'zilgan. Tenzometrlar yordamida 50 mm uzunlikda uning uzayishi o'lchanganda 0,43 mm chiqqan, diametri esa 0,007 mm ga o'zgargan. Sterjen materialining elastiklik modulini va Puasson koeffitsientini aniqlang.

javob: $E=2,06\times10^{11}$ N/m^2 $\mu=0,271$.



10-rasm.

javob: 5 mm.

9-misol. Kvadrat kesimli ster-jen R=1500 N kuch bilan cho'zila-di (10-rasmga qarang). U ochiq teshik bilan (diametri 2mm) zaiflashgan. Sterjen materia-li uchun ruxsat etilgan kuchlanish 100 MPa bo'lganda kesimning a tomoni qanchaga teng bo'lishi lozim?



11-rasm.

10-misol. R =100 kN kuch konstruktsiyaga 11-rasmda ko'rsatilganidek ta'sir qiladi. Barcha sterjenlarning ko'ndalang kesimi bir xil bo'lib, ikkita teng yonli burchaklik 80x80x8 dan iborat. Sterjenlardagi kuch-lanishni aniqlang.

javob: σ_{AV} = 30,5 MPa; σ_{AS} = 40,6 MPa
σ_{VS} = 50,9 MPa; σ_{CD} = 30,5 MPa;



12-rasm

11-misol. Bikr sterjen (12-rasm) kuch R bilan yuklangan va uni diametri 20 mm.li dumaloq ko'ndalang kesimdagi qiya po'lat tortqi ag'darilib ketishdan ushlab turadi. Eng katta yo'l qo'yiladigan yuk R ni va kuch qo'yiladigan nuqtaning gorizontal ko'chish qiymatini aniqlang. Tortqi materiali uchun ruxsat etilgan kuchlanish 160 MPa . **javob:** R=20,1 kN: δ = 5mm =$5\cdot10^{-3}$ m.



13-rasm

12-misol. Yuk R ikkita sterjenga rasmda ko'rsatilgandek osilgan. Dumaloq ko'ndalang kesimining diametri 30 mm bo'lgan sterjen 1 ning materiali uchun ruxsat etilgan kuchlanish 160 MPa diametri 40 mm bo'lgan dumaloq ko'ndalang kesimli sterjen 2 materialining ruxsat etil-gan kuchlanishi 60 MPa. Bu konstruktsiya ko'pi bilan qancha yuk R ga chidashi mumkin?

javob: 130 kN.



14-rasm

13-misol. Bikr brus SD rasmda ko'rsatilgandek yuklangan va yog'och qiya tirgak AV bilan mustahkam-langan. Brusning deformatsiyasi hisobga olinmasin. D nuqtaning kuchishi o'lchab ko'rilganda, u 3 mm ga tengligi aniqlandi. Qiya tir-gakdagi kuchlanishlar nimaga teng? Agar qiya tirgakning ko'n-dalang kesimi 20x20 sm o'lchamli kvadrat bo'lsa, nagruzka R nimaga teng?

javob: $\sigma = 4{,}33$ MPa R = 57,8 kN.



15-rasm

14-misol. Rasmda tasvirlangan kronshteynda sterjen AS po'lat-dan, sterjen VS esa yog'ochdan yasalgan. Ruxsat etilgan kuchlanish po'lat uchun [σ] = 4 MPa. Po'lat sterjenning duma-loq kesimi diametri d ni g'amda yog'och sterjenning kvadrat kesimi tomoni á ni tanlang, tugun S ning gorizontal, vertikal va to'liq siljıshini aniqlang.

javob: d = 27 mm; á = 16,4 sm; $\Delta_{vert} = 6{,}2$ mm; $\Delta = 6{,}64$ mm, $\Delta_{gor} = 2{,}4$ mm $= 24 \cdot 10^{-4}$ m.



16-rasm

15-misol. 16-rasmda tasvirlangan kron-shteyn R kuchi bilan yuklangan. Ikkala sterjen po'latdan yasalgan. Ustki ster-jen ikkita shveller № 12 dan, pastkisi ikkita № 24 dan iborat. Cho'zilishga yo'l qo'yilgan kuchlanish 160 MPa, siqishga yo'l qo'yilgan kuchlanish – 100 MPa. Eng katta yo'l qo'yilgan nagruzka R ni va nagruzka qo'yilgan uzelning vertikal siljishini aniqlang. **Javob:** R=348 kN, Δ= 2,70 mm



17-rasm

16-misol. Ko'ndalang kesim $A=1sm^2$ bo'lgan bir xil sterjenlarga P = 10 kN yuk osilgan. Sterjenlar elastik-lik moduli $E=1x10^5$ MPa bir xil bo'lgan materialdan yasalgan. Yuk osilgan nuqtaning ko'chishini aniq-lang. Agar burchak $\alpha = 52^0$ bo'lsa bu burchak qanday o'zgaradi?

misol – 17. Po'latdan tayyorlangan pog'onali brus $F_1 = 30\ kN$, $F_2 = 30\ kN$, $F_3 = 50\ kN$ tashqi kuchlar bilan yuklangan (18 – rasm). Pog'onali brus uchun ichki bo'ylama kuch N; normal kuchlanish σ va absolyut uzayish $\Delta\ell$ epyuralari qurilsin.

echish. Berilgan masala statik aniq yoki statik aniqmas sistema bo'lishidan qat'iy nazar bo'ylama ko'chishni topish tayanch nuqtadan boshlanishi kerak, chunki tayanch kesimdagi nuqtaning ko'chishi ($\Delta\ell_a = 0$) nolga teng. Shuning uchun, bo'ylama kuch N – ni topishni ham sterjenning tayanch nuqtasidan boshlaymiz.

Pog'onali brusni muvozanat tenglamasidan noma'lum reaktsiya kuchi V-ni topamiz (*18 – rasm*, a):

$$\sum y = B + F_3 - F_2 - F_1 = 0 \quad \text{va} \quad B = 30 + 30 - 50 = 10kN$$

Kesish usulidan foydalanib sterjenning yuqori pog'onasidan fikran ikki qismga ajratamiz va pastki qismni tashlab yuboramiz. Ajratib qoldirilgan qismning kesilgan yuzasiga pastki tashlab yuborilgan qismning ta'sirini almashtiradigan N kuchni qo'yamiz va muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$$\sum y = B - N_1 = 0 \quad yoki \quad B = N_1 = 10kN$$



18 – rasm. Pog'onali brusni yuklanish sxemasi va bo'ylama kuch, normal kuchlanish va bo'ylama uzayish (N, σ va Δℓ) epyuralari

Tekshirilayotgan pog'onaning uzunligi bo'ylab N1 kuch o'zgarmas bo'lib miqdor jihatdan reaktsiya kuchi V-ga teng. Kesimdagi normal kuchlanishni topamiz: $\sigma_1 = \frac{N_1}{2A} = \frac{10}{2 \cdot 3 \cdot 10^{-3}} = \frac{10^4}{6}, \frac{kN}{m^2}$

Sterjenning ℓ uzunligi bo'ylab to'liq ko'chishni topamiz

$\Delta\ell_1 = \int_0^{\ell} \frac{N_1 dy}{E2A} = \frac{N_1 y_1}{E2A}$, buerda $0 \le y_1 \le 1$ m.da o'zgaradi

Agar, $y_1 = 0$ bo'lsa $\Delta\ell_1 = 0$ va $y_1 = 1m$ bo'lsa $\Delta\ell_1 = \frac{10}{12 \cdot 10^5}, m$

Demak, brusning yuqori pog'onasida bo'ylama deformatsiya to'g'ri chiziqli qonuniyat bilan o'zgarib noldan $\Delta\ell_1 = \frac{10}{12 \cdot 10^5}$ gacha ortib boradi.

II-II – qirqimdan ajratilgan qismning muvozanat tengla-masiga asosan $\sum y = 0$. $B + F_3 - N_2 = 0$ va $N_2 = 60kN$,

normal kulanish $\sigma_2 = \frac{N_2}{A} = \frac{60}{3 \cdot 10^{-3}} = 2 \cdot 10^4 \frac{kN}{m^2}$

Sterjen ajratilgan qismining to'liq uzayishini topish uchun ikkinchi oraliq uzayishiga birinchi oraliqning to'liq uzayishini qo'shib yozamiz, ya'ni: $\Delta\ell_2 = \frac{10}{12 \cdot 10^5} + \frac{N_2 \cdot y_2}{EA}$, buerda $0 \le y_2 \le 1$ m.

kelib chiqadi. $x=0$ da $\Delta\ell_1=0$., ya'ni qo'zg'almas M kesimni uzayishi nolga teng bo'ladi, $x_1=0{,}5m$. $\Delta\ell_1=1{,}224\cdot10^{-4}m$.

$x_1=1m$ $\Delta\ell_1=\Delta\ell_B=2{,}291\cdot10^{-4}m$

II – II qirqim. $a\le x_2\le 2a$.

Qo'zg'almas kesimdan x_2 masofadagi kesimni bo'ylama kuchi quyidagicha topiladi:

$$\sum x=0. \qquad N_2=M+F_3-\int_0^2 q_x dx=M+3{,}5F-\int_0^2 q\frac{x_2dx}{2a}$$

Normal kuchlanish $\sigma_2=\frac{N_2}{A}$

$x_2=1m,$ $N_2=42{,}5kN$ $\sigma_2=21{,}25\cdot10^4\frac{kN}{m^2}$

$x_2=2m.$ $N_2=35kN,$ $\sigma_2=17{,}5\cdot10^4\frac{kN}{m^2}$

I pog'onadan II pog'onaga o'tish V nuqtasida bo'ylama kuchni qiymati $F_3=3{,}5F=35kN$ ga farq qiladi. Shuning uchun V nuqta joylashgan kesimni N epyurasida 35 kN ga teng sakrash bo'ladi.

Brus $2a$ uzunligining to'liq uzayishini topamiz.

$$\Delta\ell_2=\Delta\ell_B+\int_0^{1m}\frac{N_2dx}{EA}=2{,}291\cdot10^{-4}+\int_0^1\frac{Mx_2}{EA}+\frac{3{,}5Fx_2}{EA}-F\frac{x_2^3}{12a^2EA}$$

$x_2=0,$ $\Delta\ell_2=2{,}291\cdot10^{-4}m, x_2=0{,}5m$ $,\Delta\ell=7{,}9\cdot10^{-4}m,$

$x_2=1m,$ $\Delta\ell_2=\Delta\ell_C=13{,}3\cdot10^{-4}m$ - AS uzunlikning to'liq uzayishi.

III – III qirqim. $0\le x_3\le 1m$. Oraliq uzunligi bo'yicha taqsimlangan kuch intensivligining teng ta'sir qiluvchisi $\frac{1}{2}q\cdot2a=qa=\frac{F}{a}\cdot a=F$ teng

Brusni ajratilgan qismini muvozanat tenglamasi quyidagicha yoziladi $\sum x=N_3+F_2+F-F_3-M=0$ va $N_3=5kN$

Normal kuchlanish $\sigma=2{,}5\ 10^4\frac{kN}{m^2}$. Oraliq uzunligi bo'ylab N_3 va σ_3 teng tarqalgan, absolyut uzayish $\Delta\ell_3$ esa x_3 masofaga propor-tsional

bog'lanishda bo'lib to'g'ri chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi. *AD* oraliqning uzayishi $\Delta\ell_D = \Delta\ell_C + \frac{N_2 1}{EA} = 14{,}55\cdot10^{-4}, m$

IV – IV qirqim. $0 \le x_4 \le 1m$ oraliqda ajratilgan brus qismining muvozanat sharti

$$\Sigma x = N_4 + F_1 + \int_0^A q_x dx + F_2 - F_3 - \frac{1}{2} q2a - M = 0 \quad \text{yoki}$$

$$N_4 = -F - q\frac{x^2}{2a} - 3F + 3{,}5F + \frac{F}{a}\cdot a + F = 1{,}5F - F\frac{x_4^2}{2a^2}$$

Normal kuchlanish $\sigma_4 = \frac{N_4}{A}$ va absolyut uzayishi

$$\Delta\ell_4 = \Delta\ell_D + \int_0^A \frac{N_4 dx}{EA} = 14{,}55\cdot10^{-4} + \int_0^A \frac{\left(1{,}5F - F\frac{x_4^2}{2a^2}\right)}{EA} dx =$$

$$= 14{,}55\cdot10^{-4} + \frac{1{,}5Fx_4}{EA} - F\frac{x_4^3}{6a^2EA}$$

$x_4 = 0 . N_4 = 15kN;\ \sigma_4 = 7{,}5\cdot10^4\frac{kN}{m^2};\qquad \Delta\ell_4 = 14{,}55\cdot10^{-4}m$

$x_4 = 0{,}5m \qquad N_4 = 13{,}875kN; \qquad \sigma_4 = 6{,}937\cdot10^4\frac{kN}{m^2};$

$x_4 = 1m \qquad N_4 = 10kN; \qquad \sigma_4 = 5\cdot10^4\frac{kN}{m^2};\ \Delta\ell_4 = 17{,}88\cdot10^{-4}m$

Brusning to'liq uzayishi $\Delta\ell = 17{,}88\cdot10^{-4}m$ ga teng



20-rasm

19-misol. 20 - rasmda olti qavatli bino g'ishtli devorining ko'ndalang qirqimi ko'rsatilgan. Cherdak va tomdan devorning har pogon metriga q_1 = 60 kN/m, qavatlar-aro yopmalardan q_2 = 40 kN/m va paskti qavat polidan q = 30 kN/m kuch ta'sir qiladi. Bu kuchlar devor o'qi bo'ylab yo'nal-gan. Devor va poydevor materialining hajmiy og'irligi 20 kN/m^3. Agar ruxsat etilgan kuchlanish [σ] = 0,6 MPa bo'lsa, har bir qavatdagi devorning eng kichik qalinligini va agar erda ruxsat etilgan bosim 0,5 MPa bo'lsa, poydevor enini aniq olish mumkin?

javob: b_1 = 11,5 sm; b_2 = 21 sm; b_3 = 32 sm;



21– rasm

20-misol. G' kuch va xususiy og'irligi bilan yuklangan pog'onali brusni (21– rasm) to'liq qisqarishi topilsin. Brus materialining hajmiy og'irligi ρ va elastiklik moduli – E.

echish. Brus har bir pog'onasining xususiy og'irligi $\sigma_1 = \rho A\ell$ va $\sigma_2 = \rho 2A\ell$ va G' kuch ta`siridan – tayanch kesimida V reaktsiya kuchi hosil bo'ladi. Reaktsiya kuchini topamiz. $\sum x = B - F - \rho A\ell - \rho 2A\ell = 0$

yoki $B = F + 3\rho A\ell$

I – I qirqim $0 \le x_1 \le \ell$ oraliqda, ya`ni brusni pastki pog'onasidagi ichki bo'ylama kuchni kesish usulidan foydalanib topamiz: $\sum x = N_1 + B - \rho 2Ax_1 = 0$ va $N_1 = \rho 2A \cdot x_1 - F - 3\rho A\ell$

Brus ajratilgan qismining deformatsiyasini topamiz.

$$\Delta\ell_1 = \int_0^{\ell} \frac{N_1 dx}{E2A} = \int_0^{\ell} \frac{(\rho 2Ax_1 - F - 3\rho A\ell)dx}{E2A} = \left| \frac{\rho x_1^2}{2E} - \frac{(F + 3\rho A\ell)x_1}{E2A} \right|_0^{\ell}$$

Agar, $x_1 = 0$ bo'lsa $\Delta\ell_1 = \Delta\ell_B = 0$, ya`ni tayanch kesimida deformatsiya nolga teng: $x_1 = \ell$; $\Delta\ell_1 = -\frac{F\ell}{E2A} - \frac{\rho\ell^2}{E}$

II – II qirqim. $0 \le x_2 \le \ell$ oraliqda bo'ylama kuchni topamiz:

$\sum x = N_2 + B - \rho 2A\ell - \rho Ax_2 = 0$ va $N_2 = -F - \rho A\ell + \rho Ax_2$

Ajratilgan qismning to'liq ko'chishini topamiz.

$$\Delta\ell_2 = \Delta\ell_1 + \int_0^{x_2} \frac{N_2 dx}{EA} = \Delta\ell_1 + \int_0^{x_2} \frac{(-F - \rho A\ell + \rho Ax_2)dx}{EA} = \Delta\ell_1 + \left[\frac{\rho Ax_2^2}{2EA} - \frac{(F + \rho A\ell)x_2}{EA} \right]_0^{\ell}$$

$x_2 = 0$, $\Delta\ell_2 = \Delta\ell_1$ va $x_2 = \ell$, $\Delta\ell_2 = -\frac{3F\ell}{2EA} - \frac{3\rho \cdot \ell^2}{2E}$

21-misol. Vertikal osilgan po`latdan tayyorlangan sterjen qancha xususiy og'irligida emiriladi. Po'lat materialining mus-tahkamlik chegarasi $30\ kg/mm^2$, xususiy og'irligi $\rho = 7800\ kg/m^3$ **echish.** Faqat xususiy og'irligi bilan yuklangan sterjenni mustahkamlik shartini yozamiz: $\sigma_{max} = \rho\ell \le \sigma_B$ bu erdan kritik

uzunlik $\ell_K = \frac{\sigma_B}{\rho} = \frac{50 \cdot 10^6}{7800} = 6410m$

22-**misol.** Uzunligi $40m$ bo'lgan pog'onali brus $G' = 100\ t$ kuch va xususiy og'irligi bilan yuklangan. Pog'onali brus to'rtta bir xil uzunlikdagi oraliqdan iborat. Brus materialining solishtirma og'irligi $2\frac{t}{m^3}$, ruxsat etilgan kuchlanish $[\sigma]=80\frac{t}{m^2}$

echish. Pog'onali brus yuqori qismining kesim yuzasini topamiz:

$$A_1=\frac{F}{[\sigma]-\rho\ell_1}=\frac{100}{80-2\cdot10}=1{,}67m^2$$


Javobdagi musbat ishora egilish yo'nalishi R kuch yo'nalishi bilan mos kelganligini ko'rsatadi.

Javob: $\sigma_{II}=0,91\ \sigma_I$; $\sigma_I=810\ N/sm^2$; $f\approx 0,3$ sm.

4. Balka mustahkamligini bosh kuchlanishlar bo'yicha tekshirish. Egilayotgan balkaning ko'ndalang kesim yuzasida normal kuchlanishning eng katta qiymati balka kesimining neytral o'qidan eng uzoqda joylashgan chetki nuqtalarida hosil bo'ladi. Bu nuqtalarda urinma kuchlanish nolga teng. Shuning uchun bu materialning mustahkamligi normal kuchlanish bo'yicha ta'minlanadi: $\boxed{\sigma_{max}=\frac{M_{max}}{W}\le[\sigma]}$

Urinma kuchlanish eng katta qiymatga erishgan neytral qatlamdagi materialda normal kuchlanish nolga teng. Shuning uchun bu materialning mustahkamligi urinma kuchlanishlar bo'yicha ta'minlanadi: $\boxed{\tau_{max}=\frac{Q_{max}\cdot S_{max}}{I_x d}\le[\tau]}$

Balka kesimining neytral o'qidan u masofada joylashgan materialning mustahkamligini normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha ta`minlash mumkin emas. Chunki bu matertialda normal σ va urinma τ kuchlanishlar noldan farqli. Shuning uchun bu elementning mustahkamligi normal va urinma kuchlanishlar buyicha mustahkamlik shartlariga bo'ysunmaydi.



Ushbu materialdan ajratilgan kubik shaklidagi elementning old qismi – balkaning yon sirtiga ustma - ust tushadi. Bu yuza normal va urinma kuchlanishlardan ozod, shuning uchun bu yuzacha bosh yuza, elementni vertikal yuzalari normal σ_x va τ_y urinma kuchlanishlar, gorizontal yuzasi esa faqat τ_x urinma kuchlanish ta`sirida. Ikkita kuchla-nishlar ta`siridagi yuzalar tekis kuchlanganlik holatida bo'ladi.



6.53 rasm

B element II-II qirqimda joylashgan

Tekis kuchlanganlik holatidagi elementda uchta bosh normal kuchlanishlardan bittasi (masalan $\sigma_2 = 0$) nolga teng. σ_1 va σ_3 bosh normal kuchlanishlarni, berilgan $\sigma_x; \tau_x = -\tau_y$ kuchlanishlari yordamida Mor doirasini qurish usuli bilan topamiz (6.53-rasm). Buning uchun $\sigma O \tau$ koordinata sistemasini olamiz. Koordinata boshidan (O nuqtadan) kuchlanishlar masshtabida cho'zuvchi normal kuchlanishni $\sigma_x = OK$ kesma –masofa bilan belgilaymiz. K nuqtadan σ o'qiga perpendikulyar tekislikda musbat ishorali urinma kuchlanish $\tau_x = KD$ joylashtiriladi. Elementning gorizontal yuzasiga qo'yilishi mumkin bo'lgan vertikal tekislikdagi normal kuchlanish nolga teng ($\sigma_y = 0$) chunki egilishda balkaning yuqori qatlam materiali pastki material qatlamiga vertikal tekislikda bosim ta`sirini o'tkazmaydi)

bo'lganligi uchun bu kuchlanish $\sigma o\tau$ koordinata sistemasining O nuqtasida joylashadi. O nuqtadan τ o'qining manfiy tomoniga $\tau_y = OD_1$ kuchlanishni joylashtirsak D va D_1 nuqtalar kelib chiqadi. D va D_1 nuqtalarni birlashtirsak Mor doirasining markazi S nuqta hosil bo'ladi. D va D_1 nuqtalar Mor doirasining chetki nuqtalari bo'lganligi uchun kuchlanishlar doirasi $CD = R$ radiusi bilan chiziladi (6.53– rasm).Mor doirasi σ o'qining N va N_1 nuqtalarda kesib o'tadi. Kuchlanishlar masshtabida ON masofa σ_1 - eng katta bosh normal kuchlanishga, ON_1 masofa esa- σ_3 bosh normal kuchlanishga teng.

Qushtavrli kesimni har bir nuqtasidagi bosh normal kuchlanishlar topiladi:

$$\sigma_{1,3} = \frac{1}{2}\left[\sigma \pm \sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2}\right].$$

1 – nuqta uchun $\sigma_1 = 0$ va $\sigma_3 = -1472{,}7\frac{kg}{sm^2}$

2 – nuqta. $\sigma_{1,3} = \frac{1}{2}\left[-1361{,}4 \pm \sqrt{(1361{,}4)^2 + 4\cdot(5{,}62)^2}\right] = \frac{1}{2}(-1361{,}4 \pm 1361{,}44)$

buerdan $\sigma_1 = 0{,}02\ kg/sm^2$ va $\sigma_3 = -1361{,}42\ kg/sm^2$

3 – nuqta. $\sigma_{1,3} = \frac{1}{2}\left[-1361{,}4 \pm \sqrt{(1361{,}4)^2 + 4\cdot(126{,}5)^2}\right] = \frac{1}{2}(-1361{,}4 \pm 1384{,}7);$

buerdan $\sigma_1 = 11{,}7\frac{kg}{sm^2}$ $\sigma_3 = -1373{,}4\frac{kg}{sm^2}$

4 – nuqta. $\sigma_{1,3} = \frac{1}{2}\left[-681{,}7 \pm \sqrt{(681{,}7)^2 + 4\cdot(151{,}2)^2}\right] = \frac{1}{2}(-681{,}7 \pm 745{,}8);$

buerdan $\sigma_1 = 32\frac{kg}{sm^2}$ va $\sigma_3 = -713{,}8\frac{kg}{sm^2}$

5 – nuqta $\sigma_{1,3} = \pm 162\frac{kg}{sm^2}$

Neytral o'qdan pastki qatlam materiali cho'zilish deforma-tsiyasiga qarshilik ko'rsatadi, shuning uchun bu qatlamda normal kuchlanish musbat ishorali bo'ladi. Demak, 6,7,8 va 9 nuqtalardagi $\sigma_{1,3}$ - bosh normal kuchlanishlarini hisoblashda normal kuchlanish - σ musbat ishora bilan olinadi.

Bosh urinma kuchlanishni maksimal va minimal qiymati kesimni har bir nuqtasi uchun $\tau_{\substack{max\\min}} = \pm\frac{1}{2}\sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2}$ formula bilan hisoblanadi. Bosh normal kuchlanishlarni yo'nalishlari $tg2\alpha_0 = -\frac{2\tau}{\sigma}$



6.54-rasm. Normal va urinma kuchlanishlar, bosh normal kuchlanish

5.Egilishda salkilik va kesimning aylanish burchagini xisoblashga oid misollar.



6.55 - rasm

Salkilik va kesimning aylanish burchagini boshlang'ich parametrlar usuli bilan hisoblash tartibi:.

1.balka berilgan sxemasini 6.55-rasmda ko'rsatilganidek chizamiz va universal formulani tuzish shartlari asosida kesimni aylanish burchagi va salkilik tenglamalarini tuzamiz:

-Kesimni aylanish burchagining formulasi:

$$\theta = \theta_0 + \frac{1}{EI}\left[A\frac{x^2}{2} - q\frac{x^3}{6} + F\frac{(x-2)^2}{2} + q\frac{(x-2)^3}{6}\right]$$ va salqilik

formulasi $$y = y_0 + \theta_0 x + \frac{1}{EI}\left[A\frac{x^3}{6} - q\frac{x^4}{24} + F\frac{(x-2)^3}{6} + q\frac{(x-2)^4}{24}\right]$$

Balka boshlang'ich kesimining aylanish burchagi θ_0 va sal-qiligi y_0- larni balka uchlarining tayanch turlariga bog'liq ravishda aniqlaymiz.

Masalan, $x_0 = 0; \theta = \theta_A = \theta_0 \neq 0; y = y_A = y_0 = 0$, ya'ni A tayanch kesimining aylanish burchagi nolga teng emas, lekin vertikal ko'chishi cheklangan. Shuning uchun bu tengliklardan $y_0 = 0$ va θ_0 -ni topib bo'lmaydi. $x = 6\ m$. bo'lsa $\theta = \theta_B \neq 0$ va $y = y_B = 0$

Unda ikkinchi tenglamadan

$$6\theta_0 + \frac{1}{EI}\left[\frac{100}{6}\frac{6^3}{6} - 20\frac{6^4}{24} + 40\frac{(4)^3}{6} + 20\frac{(4)^4}{24}\right] = 0 \quad \text{yoki} \quad \theta_0 = \frac{-26,7}{EI}$$

Balka kesimining aylanish burchagi

$$\theta = -\frac{26,7}{EI} + \frac{1}{EI}\left[A\frac{x^2}{2} - q\frac{x^3}{6} + F\frac{(x-2)^2}{2} + q\frac{(x-2)^3}{6}\right]$$

salqilik tenglamasi

$$y = \frac{-3840}{144EI}x + \frac{1}{EI}\left[A\frac{x^3}{6} - q\frac{x^4}{24} + F\frac{(x-2)^3}{6} + q\frac{(x-2)^4}{24}\right]$$

Balkani turli kisimlar uchun y va θ ni hisoblaymiz.

$$x = 2m, \qquad y = \frac{-3840 \cdot 2}{144EI} + \frac{1}{EI}\left[\frac{100}{6}\frac{8}{6} - 20\frac{16}{24}\right] = \frac{44,4}{EI}$$

$$x = 6\ m, \quad \theta_B = \frac{-3840}{144EI} + \frac{1}{EI}\left[\frac{100}{6}\frac{36}{2} - 20\frac{216}{6} + 40\frac{16}{2} + 20\frac{64}{6}\right] = \frac{86,63}{EI}$$

6. Balkani egilishdagi ko'chishini grafoanalitik usul bilan hisoblaymiz. Balkani berilgan sxemasi uchun soxta balka tanlaymiz. Soxta balkani berilgan balka uchun qurilgan eguvchi moment epyurasi bilan yuklaymiz (6.56-rasm)



6.56 – rasm. Soxta balka.

Soxta balkani (*6.56–rasm*) reaktsiya kuchlarini topamiz $\sum M_b = 0$.

$$A_f \cdot 6 - \omega_1\left(6 - \frac{5}{6}\right) + \omega_2\left(4 + \frac{1}{12}\right) + \omega_3\left(3{,}6 + \frac{0{,}8}{3}\right) - \omega_4 \frac{3{,}6}{3} = 0$$

buerda $\omega_1 = \frac{2}{3} \cdot \frac{4}{3} \cdot \frac{125}{18} = 7{,}71605 \ \frac{kN}{m^2}$ $\omega_2 = \frac{1}{3} \cdot \frac{20}{3} \cdot \frac{1}{3} = \frac{20}{27} \ \frac{kN}{m^2}$

$$\omega_3 = \frac{1}{2} \cdot \frac{20}{3} \cdot 0{,}4 = \frac{4}{3} \ \frac{kN}{m^2} \qquad \omega_4 = \frac{1}{2} \cdot 60 \cdot 3{,}6 = 108 \ \frac{kN}{m^2}$$

$$A_f \cdot 6 - \frac{156770}{972} = 0; \qquad A_f = \frac{156770}{6 \cdot 972} = 26{,}9 \ \frac{kN}{m^2}$$

y va θ larni aniqlaymiz $y_k = \frac{M_f^k}{EI} = \frac{-44{,}8}{EI}$ va $\theta_B = \frac{Q_f^B}{EI} = \frac{B_f}{EI} = \frac{86{,}76}{EI}$

$M_f^k = -A_f \cdot 2 + \omega_1\left(\frac{5}{6} + \frac{1}{3}\right) - \omega_2 \frac{1}{12} = -26{,}9 \cdot 2 + 7{,}716 \cdot \frac{7}{6} - 0{,}74 \frac{1}{12} = -44{,}8 kNm^3$ Soxta balkaning V tayanch reaktsiya kuchini aniqlaymiz.

$$\sum M_A = -\omega_1 \cdot \frac{5}{6} - \omega_2\left(\frac{5}{3} + \frac{3}{4}\frac{1}{3}\right) - \omega_2\left(2 + \frac{0{,}4}{3}\right) + \omega_1\left(2{,}4 + \frac{2}{3}3{,}6\right) - B_f 6 = 0$$

6.42-misol. Berilgan balka (*6.57-rasm*) tayanch kesimlarining aylanish burchaklari,S va D nuqtalarning salqiliklari topilsin. $EI = 4 \cdot 10^3 kNm^2$

echish. Balkaning reaktsiya kuchlarini topamiz.

$$\sum M_A = -F\cdot 1 - R_B\cdot 4 + F\cdot 5 = 0; \qquad R_B = F = 40kN$$

$$\sum M_B = -F\cdot 5 - R_A\cdot 4 + F\cdot 1 = 0; \qquad R_A = 40kN$$

Eguvchi moment tenglamalarini tuzamiz va epyurasini quramiz.

I – I qirqim $0 \le x_1 \le 1m$ $\quad M_{x_1} = -Fx_1;$

II – II qirqim $1 \le x_2 \le 5m$ $\quad M_{x_2} = -F_{x_2} + R_A(x_2 - 1)$

III – III qirqim $5 \le x_3 \le 6m$ $\quad M_{x_3} = -Fx_3 + R_A(x_3 - 1) + R_B(x_3 + 5)$

Universal formulani tuzamiz: Kesimning aylanish burchagi

$$\theta = \theta_0 + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{x^2}{2} + R_A\frac{(x-1)^2}{2} + R_B\frac{(x-5)^2}{2}\right] \quad (a)$$

va salqilik tenglamasi

$$y = y_0 + \theta_0 x + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{x^3}{6} + R_A\frac{(x-1)^3}{6} + R_B\frac{(x-5)^3}{6}\right] \quad (b)$$

Universal formuladagi noma`lum θ_0 va y_0 larni topish uchun balka uchlarining tayanish shartidan foydalanamiz:

$x = 1m$ bo'lsa, $\theta = \theta_A \neq 0;$ $\quad y = y_a = 0$ unda (b) tenglamadan

$y_a + \theta_a\cdot 1 - \frac{F\cdot 1^3}{6EI} = 0$ (v) hosil bo'ladi.

$x = 5м$ bo'lsa, $\theta = \theta_B \neq 0;$ $\quad y = y_B = 0$ unda (b) tenglamadan

$y_0 + 5\theta_0 + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{125}{6} + R_A\frac{64}{6}\right] = 0$ tenglama hosil bo'ladi. *(v)* va *(g)*

Tenglamalarni sistema qilib echamiz:

$$y_0 + \theta_0 - \frac{F}{6EI} = 0;$$

$$y_0 + 5\theta_0 - \frac{125F}{6EI} + \frac{64R_A}{6EI} = 0$$

Yuqoridagi tenglamani - 1ga ko'paytirib, hosil bo'lgan tenglamani pastki tenglamaga qo'shamiz: $\quad 4\theta_0 - \frac{124F}{6EI} + \frac{64R_A}{6EI} = 0$

bu erdan $\quad \theta_a = \frac{124F - 64R_A}{24EI} = \frac{124\cdot 40 - 64\cdot 40}{24EI} = \frac{100}{EI}$

$\theta_a = \frac{100}{EI}$ ifodani *(v)* tenglamaga qo'yib $\quad U_0$ - ni topamiz

$$Y_a = \frac{F}{6EI} - \theta_0 = \frac{40}{6EI} - \frac{100}{EI} = -\frac{560}{6EI}$$

Topilgan θ_0 va Y_0 larni universal formulaga keltirib qo'yamiz:

$$\theta = \frac{100}{EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{x_1}{EI} + R_A\frac{(x-1)^2}{2} + R_B\frac{(x-5)^2}{2}\right]$$

$$Y = -\frac{560}{6EI} + \frac{100x}{6EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{x^3}{6} + R_A\frac{(x-1)^3}{6} + R_B\frac{(x-5)^3}{6}\right]$$

Balkaning A tayanch kesimining aylanish burchagi:

$$\theta = \theta_A = \frac{100}{EI} - \frac{F\cdot 1^2}{2EI} = \frac{100}{EI} - \frac{20}{EI} = \frac{80}{EI} = \frac{80}{4\cdot 10^3} = 0{,}02 rad$$

V tayanch kesimining aylanish burchagi

$$\theta = \theta_B = \frac{100}{EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{25}{5} + R_A\frac{16}{2}\right] = \frac{100}{EI} - \frac{80}{EI} = -\frac{20}{4\cdot 10^3} = -0{,}02 rad$$

S nuqtaning salqiligini topamiz $X = 3\ m$

$$Y_C = -\frac{560}{6EI} + \frac{100\cdot 3}{EI} - \frac{27F}{6EI} + \frac{8R_A}{6EI} = \frac{-560 + 1800 - 1080 + 320}{6EI} = \frac{480}{24\cdot 10^3} = 0{,}02 m$$

D nuqtaning salqiligini topamiz: ($x = 6\ m$)

$$Y_D = -\frac{560}{6EI} + \frac{100\cdot 6}{EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{216}{6} + R_A\frac{125}{6} + R_B\frac{1}{6}\right] =$$

$$= \frac{-560 + 3600 - 8640 + 5000 + 40}{24\cdot 10^3} = -\frac{560}{24\cdot 10^3} = -0{,}0233 m$$

Balkaning deformatsiyasini grafoanalitik usul bilan aniqlash uchun, haqiqiy balkadan soxta balkani tanlaymiz (*6.57 – rasm*) va uni soxta kuch bilan yuklaymiz. Haqiqiy konsol balkaning tayanch nuqtalari soxta balkada sharnirlar bilan almashtiriladi.



6.57 rasm

Sharnirli kesimlarda momentni ta'siri nolga teng bo'lganligi uchun, soxta balkaning uchta oddiy balkalarga ajratamiz. O'rta soxta balkaning reaktsiya kuchlarini topamiz.

$$\sum M_A = q_f \cdot \frac{4^2}{2} - B_f \cdot 4 = 0 \qquad yoki \quad B_f = 2 \cdot 40 = 80 kNm^2$$

$$\sum M_B = -q_f \cdot 8 + A_f \cdot 4 = 0 \qquad yoki \quad A_f = 80 kNm^2$$

Topilgan θ_0 va Y_0 larni universal formulaga keltirib qo'yamiz:

$$\theta = \frac{100}{EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{x_1}{EI} + R_A\frac{(x-1)^2}{2} + R_B\frac{(x-5)^2}{2}\right]$$

$$Y = -\frac{560}{6EI} + \frac{100x}{6EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{x^2}{6} + R_A\frac{(x-1)^3}{6} + R_B\frac{(x-5)^3}{6}\right]$$

Balkaning A tayanch kesimining aylanish burchagi:

$$\theta = \theta_A = \frac{100}{EI} - \frac{F\cdot 1^2}{2EI} = \frac{100}{EI} - \frac{20}{EI} = \frac{80}{EI} = \frac{80}{4\cdot 10^3} = 0{,}02 rad$$

V tayanch kesimining aylanish burchagi

$$\theta = \theta_B = \frac{100}{EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{25}{5} + R_A\frac{16}{2}\right] = \frac{100}{EI} - \frac{80}{EI} = -\frac{20}{4\cdot 10^3} = -0{,}02 rad$$

S nuqtaning salqiligini topamiz $X = 3\ m$

$$Y_C = -\frac{560}{6EI} + \frac{100\cdot 3}{EI} - \frac{27F}{6EI} + \frac{8R_A}{6EI} = \frac{-560 + 1800 - 1080 + 320}{6EI} = \frac{480}{24\cdot 10^3} = 0{,}02 m$$

D nuqtaning salqiligini topamiz: ($x = 6\ m$)

$$Y_D = -\frac{560}{6EI} + \frac{100\cdot 6}{EI} + \frac{1}{EI}\left[-F\frac{216}{6} + R_A\frac{125}{6} + R_B\frac{1}{6}\right] =$$

$$= \frac{-560 + 3600 - 8640 + 5000 + 40}{24\cdot 10^3} = -\frac{560}{24\cdot 10^3} = -0{,}0233 m$$

Balkaning deformatsiyasini grafoanalitik usul bilan aniqlash uchun, haqiqiy balkadan soxta balkani tanlaymiz (*6.57 – rasm*) va uni soxta kuch bilan yuklaymiz. Haqiqiy konsol balkaning tayanch nuqtalari soxta balkada sharnirlar bilan almashtiriladi.



6.57 rasm

Sharnirli kesimlarda momentni ta'siri nolga teng bo'lganligi uchun, soxta balkaning uchta oddiy balkalarga ajratamiz. O'rta soxta balkaning reaktsiya kuchlarini topamiz.

$$\sum M_A = q_f \cdot \frac{4^2}{2} - B_f \cdot 4 = 0 \qquad yoki \quad B_f = 2 \cdot 40 = 80 kNm^2$$

$$\sum M_B = -q_f \cdot 8 + A_f \cdot 4 = 0 \qquad yoki \quad A_f = 80 kNm^2$$

A kesimning aylanish burchagi: $\theta_A = \frac{\theta_f^A}{EI} = \frac{A_f}{EI} = \frac{80}{4 \cdot 10^3} = 0{,}02 rad$

V kesimning aylanish burchagi: $\theta_B = \frac{\theta_f^B}{EI} = \frac{B_f}{EI} = -\frac{80}{4 \cdot 10^3} = -0{,}02 rad$

S nuqtaning salqiligi: $yC = \frac{M_f^C}{EI} = \frac{80}{4 \cdot 10^3} = 0{,}02 m$

bu erda $M_f^C = A_f \cdot 2 - q_f \frac{2^2}{2} = 80 \cdot 2 - 40 \cdot 2 = 80 kNm^3$

D nuqtaning salqiligini topish uchun $V - D$ uzunlikdagi soxta balkani o'rganamiz: $y_D = \frac{M_f^D}{EI} = \frac{-\omega \frac{2}{3} \cdot 1 - B_f \cdot 1}{EI} = \frac{-\frac{40}{3} - 80}{4 \cdot 10^3} = -0{,}023 m$

bu erda $\omega = \frac{1}{2} q_f \cdot 1 = \frac{40}{2} = 20 kNm^2$



6.58-rasm.

6.43-misol. Bir uchi kistirib maxkamlangan balkaning θ va V nuktalarining salkiligi boshlangich parametrlar usuli bilan toping

echish: Balkaning oraliqlarga bo'lib eguvchi momentning tenglamalarini tuzamiz

1 – 1 qirqim $0 \le x_1 \le 1m \quad M_{x_1} = -Fx_1;$

II – II qirqim $1 \le x_2 \le 2m \quad M_{x_2} = -Fx_2 - M;$

III – III qirqim $2 \le x_3 \le 3m \quad M_{x3} = -Fx_3 - M - q\frac{(x_3 - 2)^2}{2};$

IV – IV qirqim $3 \le x_4 \le 4m \quad M_{x_4} = -Fx_4 - M - q \cdot 1(x_4 - 2{,}5);$

Balka uchun universal formulani tuzamiz:

$$\theta = \theta_0 + \frac{1}{EJ}\left[-F\frac{x^2}{2} - M(x-1)^1 - q\frac{(x-2)^3}{6} + q\frac{(x-3)^3}{6}\right]$$

$$y = y_0 + \theta_0 x + \frac{1}{EJ}\left[-F\frac{x^3}{6} - M\frac{(x-1)^2}{2} - q\frac{(x-2)^4}{24} + q\frac{(x-3)^4}{24}\right]$$

Universal formuladagi θ_0 va y_0 noma'lumlarni balka uchla-rining tayanish shartidan foydalanib topamiz. $x = 0$ nuqta tayanch-dan ozod, bu kesimda $\theta = \theta_0 \neq 0$ va $y = y_0 \neq 0$ Shuning uchun, $x = 0$ shartdan foydalanib bo'lmaydi. $x = 4$ *m*. masofadagi tayanch kesimning barcha yo'nalishdagi harakatlari chegaralangan. Shuning uchun $x = 4$ m. bo'lsa θ va y tenglamalaridan quyidagini hosil qilamiz:

$\theta = 0$ va $y = 0$

$$\theta_0 = \frac{1}{EJ}\left[F\frac{16}{2} + M\cdot 3 + q\frac{8}{6} - q\frac{1}{6}\right] = \frac{2300}{6EJ};$$

$$y_0 = -\frac{2300\cdot 4}{6\cdot EJ} + \frac{1}{EJ}\left[F\frac{64}{6} + M\cdot\frac{9}{2} + q\frac{16}{24} - q\frac{1}{24}\right] = -\frac{24500}{24EJ}$$

Topilgan θ_0 va y_0 – larni universal formulaga keltirib qo'yamiz.

$$\theta = \frac{2300}{6EJ} + \frac{1}{EJ}\left[-F\frac{x^2}{2} - M(x-1)^1 - q\frac{(x-2)^3}{6} + q\frac{(x-3)^3}{6}\right]$$

$$y_x = -\frac{24500}{24EJ} + \frac{2300}{6EJ}\cdot x + \frac{1}{EJ}\left[-F\frac{x^3}{6} - M\frac{(x-1)^2}{6} - q\frac{(x-1)^4}{24} + q\frac{(x-3)^4}{24}\right]$$

O nuqtani salqiligi $x = 0$ nuqtaga to'g'ri kelib $y = y_0$ hosil bo'ladi.

$$y_0 = -\frac{24500}{24\cdot 10^5} = -0{,}0102m$$

V nuqtaning salqiligini topamiz ($x = 2$ *m*)

$$y_B = -\frac{24500}{24EJ} + \frac{2300\cdot 2}{6EJ} - \frac{240}{6EJ} - \frac{40}{2EJ} \approx -3{,}14\cdot 10^{-3} m$$

6.44-misol . Ikkita sharnirli tayanchga tayangan, uzunligi $\ell = 1$. Balkaning o'rta kesimida salqilik $f = 6{,}25$ *mm*. Balkaning kesimi, tomonlari $b = 0{,}06$ *m* va $h = 0{,}04$ *m* bo'lgan to'g'ri burchakli. Balka materialining elastiklik moduli va bo'ylama o'qining egrilik radiusi topilsin. $\sigma_{max} = [\sigma] = 10\cdot 10^3 \frac{kN}{m^2}$

echish: Balkaning normal kuchlanish bo'yicha mustahkamlik shartini yozamiz: $\sigma_{max} = \frac{M\cdot y_{max}}{I_x} = [\sigma]$. Bu erda $y_{max} = \frac{h}{2}$ va M balkaning

xavfli kesimidagi eguvchi momenti M - momentli balkaning eng katta salqiligini f bilan belgilaymiz. $f=\frac{M\ell^2}{8EI_x}$ va $M=\frac{fEI_x\cdot 8}{\ell^2}$, unda

mustahkamlik shart quyidagicha yoziladi: $\frac{fEI_x\cdot 8\cdot\frac{h}{2}}{I_x\cdot\ell^2}=[\sigma]$

va $$E=\frac{[\sigma]\ell^2}{f\cdot 8\cdot\frac{h}{2}}=\frac{1\cdot 10^4}{6{,}25\cdot 10^{-3}\cdot 8\cdot\frac{0{,}04}{2}}=1\cdot 10^7\ \frac{kN}{m^2}$$

Egrilik radiusi ρ bilan M va balkaning egilishdagi bikr-ligi EI_x orasidagi bog'lanishni yozamiz: $\frac{1}{\rho}=\frac{M}{EI_x}$ bu erdan

$$\rho=\frac{EI_x}{M}=\frac{EI_x\ell^2}{fEI_x\cdot 8}=\frac{\ell^2}{f\cdot 8}=\frac{1^2}{6{,}25\cdot 10^{-3}\cdot 8}=20m$$

6.45-misol. Balkani to'liq xisoblashga oid mustaqil ish uchun misollar (6.59-rasm)

Balkani xavfli kesimi uchun qo'shtavr profili tanlansin.
Balkani mustaxkamligi bosh kuchlanishlar bo'yicha tekshirilsin.
Balkani deformatsiyasi xisoblansin

Variant	Masofalar, m			M, kNm	F, kN	$q,\frac{kN}{m}$
	a	a_1	a_2			
1	1	9	1	10	10	10
2	2	8	2	20	20	20
3	3	7	3	3	3	3
4	4	6	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	1	6	6	6
7	7	7	2	7	7	7
8	8	8	3	8	8	8
9	9	9	4	9	9	9
10	10	10	5	10	10	10

1		6	



6.59-rasm. Balkani to'liq xisoblashga oid

Ramalarda ko'chishlarni hisoblashga oid misollar.

6.46-misol. Berilgan ramani B tayanchining gorizontal ko'chishi, C nuqtani vertikal kuchishi va D kesimni aylanish burchagi topilsin (6.60 – rasm). Berilgan: $q=20\ kN/m;\ a=2\ m;\quad n=3m;\ EI=const$

echish: 1. Ramani tayanch kuchlarini aniqlaymiz.

$$\sum x=-H_A+qh=0;\ H_A=60\ kN;$$

$$\sum M_A=0;\quad Ba-q\frac{h^2}{2}=0 \qquad \text{va} \qquad B=q\frac{h^2}{2a}=45kN$$

$$\sum M_B=0 \qquad Aa-q\frac{h^2}{2}=0 \qquad \text{va} \qquad A=q\frac{h^2}{2a}=45kN$$

2. Eguvchi moment tenglamalarini tuzamiz va epyuralarini quramiz.

I-I qirqim . $0\le y_1\le h=3m \qquad M_{x_1}=H_A\cdot y_1-q\frac{y_1^2}{2}$



6.60 - rasm

a)



b)



II-II qirqim. $0 \le x_1 \le a = 2m$.

$$M_{x_1} = -Ax_1 - q\frac{h^2}{2} + A_A h = -Ax_1 + 90$$

III - III qirqim. $0 \le y_2 \le h$;

$$M_{x_3} = 0$$

6.61 - rasm

Rama eguvchi momenti epyurasining yuzalarini hisoblaymiz (*6.61–rasm,a*).

$$\omega_1 = \frac{2}{3} \cdot 90 \cdot 3 = 180 kNm^2; \quad \omega_2 = \frac{1}{2} \cdot 90 \cdot 2 = 90 kNm^2;$$

Ramani $x=1$ birlik kuch ta'siridan eguvchi moment epyurasini quramiz. ω_1 va ω_2 kuch yuzalarining og'irlik markaziga to'g'ri keluv-chi birlik kuch momenti epyurasining ordinatasini topamiz. $M_1^0 = \frac{5}{8}h$ va $M_2^0 = h = 3$ (*6.61– rasm,b*). B nuqtani gorizontal ko'chishi

$$\Delta_B = \frac{\omega_1 M_1^0}{EI} + \frac{\omega_2 M_2^0}{EI} = \frac{180 \cdot \frac{5}{3} \cdot 3}{EI} + \frac{90 \cdot 3}{EI} = \frac{4860}{8EI}$$

C nuqtani vertikal ko'chishini aniqlash uchun, ramani shu nuqtasiga $x_1 = 1$ birlik kuchini qo'yamiz va eguvchi moment epyurasini quramiz.(*6.62-rasm*). $x_1 = 1$ birlik kuch rama gorizontal



6.62 – rasm

qismining o'rtasida ta'sir qilganligi uchun $A' = B' = \frac{1}{2}$. Unda

$$M_c = -A' \frac{a}{2} = -\frac{1}{2} \cdot \frac{a}{2} = -\frac{1}{2}\ m$$

C nuqtani vertikal ko'chishi $\Delta_C = \frac{\omega_2 M_3^0}{EI} = \frac{\omega_{x_1} M_q^0}{EI}$

buerda $\omega_{x1} = \frac{1}{2} \cdot 0{,}5 \cdot \frac{a}{2} \cdot a = \frac{1}{2} \cdot 0{,}5 \cdot \frac{2}{2} \cdot 2 = \frac{1}{2}\ m^2$

$M_q^0 = B' \cdot \frac{a}{2} = 45 \cdot \frac{2}{2} = 45$ kNm – berilgan ramaning gorizontal qismidagi eguvchi moment epyurasini $x_1 = 1$ birlik kuchi momenti epyurasining yuzi ω_{x1}ni og'irlik markaziga to'g'ri keluvchi ordinatasi. Unda

$$\Delta_C = \frac{\frac{1}{2} \cdot 45}{EI} = \frac{22{,}5}{EI}$$

D kesimni aylanish burchagini aniqlash uchun ramani shu nuqtada $M_0 = 1$ birlik momenti bilan yuklaymiz (6.62 – rasm) va reaktsiya kuchlarini aniqlaymiz: $A = -B = \frac{M}{a} = \frac{1}{2}\left(\frac{1}{m}\right)$ birlik momenti (M_m) epyurasini quramiz. D kesimni aylanish burchagi:

$$\theta_D = \frac{\omega_2 \cdot M_4^0}{EI} = \frac{90 \cdot \frac{1}{2} \cdot \frac{2}{3}}{EI} = \frac{30}{EI}$$

6.47-misol. Berilgan rama A kesimining vertikal, V kesimi-ning gorizontal ko'chishlari va S kesimining aylanish burchaklari topilsin. Ramani barcha sterjenlari uchun $EI = sonst$.

echish: Ramani D va V tayanchlaridagi R_D va R_B reaktsiya kuchlarini aniklaymiz (*6.63 – rasm*).

$$\Sigma x = 0 \quad F - H_D = 0 \text{ va } H_D = F$$

$$\Sigma M_B = -H_D \cdot h + R_D \cdot a = 0 \quad \text{va} \quad R_D = \frac{H_D \cdot h}{a} = \frac{F \cdot h}{a}$$

$$\Sigma M_D = -F \cdot h + R_B \cdot a = 0 \quad \text{va} \quad R_B = \frac{Fh}{a}$$

Tekshirish.: $\Sigma y = R_D - R_B = 0$ yoki $\frac{F \cdot h}{a} - \frac{F \cdot h}{a} = 0$



6.63 - rasm

Ramani eguvchi momenti epyuralarini quramiz.

Ramani har bir oraliqidagi eguvchi momenti epyuralarining yuzalarini hisoblaymiz va ularning og'irlik markazlari-ni topamiz.

$$\omega_1 = \frac{1}{2} \cdot R_B \cdot a \cdot a = F \cdot h \cdot a \cdot \frac{1}{2};$$

$$\omega_2 = \frac{1}{2} \cdot H_D \cdot h \cdot h = \frac{1}{2} Fh^2$$

Ramaning tegishli kesimlaridagi salqilik va aylanish burchaklarini Vereshagin formulasi bilan aniqlaymiz.

$$\Delta = \frac{\omega \cdot M^0}{EI}$$

A kesimni vertikal ko'chishini aniqlash uchun ramani shu nuq-tasidan $x_1 = 1$ birlik kuch bilan yuklangan soxta ramaning reaktsiya kuchlarini aniqlaymiz va birlik kuch eguvchi momenti epyurasini quramiz (*6.64 – rasm*).

$$\sum M_D = Ba - x_1 \frac{a}{2} = 0 \text{ va } B = \frac{x_1}{2} \text{ Unda } M_A = -B\frac{a}{2} = \frac{-x_1 a}{4} = -\frac{a}{4}$$

A kesimni vertikal ko'chishi $\Delta_A = \frac{\omega_1' M_F^0}{EI} = \frac{\frac{1}{2} \cdot a \cdot \frac{a}{4} \cdot \frac{Fh}{2}}{EI} = \frac{Fha^2}{16EI}$

buerda $\omega_1' = \frac{1}{2} \cdot a \cdot \frac{a}{4} = \frac{a^2}{8}$ birlik kuch eguvchi momenti epyurasining yuzasi;

$M_F^0 = R_B \cdot a = \frac{Fh}{2}$ - birlik kuch eguvchi momenti epyurasi yuzasining og'irlik markaziga to'g'ri keluvchi tashqi kuch eguvchi momentning ordinatasi.



6.64 - rasm

B kesimni gorizontal ko'chishini aniqlash uchun ramani shu nuqtasiga gorizontal $x_2 = 1$ birlik kuchini joylashtira- miz va soxta ramani $x_2 = 1$ birlik kuchi eguvchi momenti epyurasini quramiz

- Reaktsiya kuchlari $\sum x = x_2 - H_D' = 0;$ $\quad H_D' = x_2 = 1$

$$\sum M_B = -H_D' \cdot h + R_D' \cdot a = 0 \quad \text{va} \quad R_D' = \frac{H_D' h}{a} = \frac{x_2 h}{a} = \frac{h}{a}$$

$$\sum M_D = -x_2 \cdot h + R_B' \cdot a = 0 \quad \text{va} \quad R_B' = \frac{h}{a}$$

V kesimni gorizontal ko'chishini Vereshagin formulasi bilan aniqlaymiz.

$\Delta_B = \frac{\omega_1 M_1^0 + \omega_2 M_2^0}{EI}$ bu erda $\omega_1 = \frac{Fha}{2}$ va $\omega_2 = \frac{Fh^2}{2}$ -

tashqi kuch eguvchi momenti epyuralarining yuzalari (*6.65 - rasm*)

M_1^0 va M_2^0 - tashqi kuch eguvchi momenti epyuralari yuzalarining (ω_1 va ω_2) og'irlik markazlariga to'g'ri keluvchi $x_2 = 1$ birlik kuchi eguvchi momenti epyurasining ordinatasi. $\quad M_1^0 = R_B^1 \cdot \frac{2}{3}a = \frac{h}{a} \cdot \frac{2a}{3} = \frac{2h}{3};$

$M_2^0 = H_D^1 \cdot \frac{2h}{3} = 1 \cdot \frac{2h}{3} = \frac{2h}{3}$



6.65 - rasm

Unda $$\Delta_B = \frac{1}{EI}\left(\frac{Fha}{2}\cdot\frac{2h}{3}+\frac{Fh^2}{2}\cdot\frac{2h}{3}\right)=\frac{Fh^2}{3}(a+h)$$

S kesimni aylanish burchagini Vereshagin usuli bilan aniqlash ramani shu nuqtasini $M_0 = 1$ birlik momenti bilan yuklaymiz va eguvchi moment epyurasini quramiz (6.65 - rasm). Soxta ramani tayanch nuqtalaridagi V' va D' – reaktsiya kuchlarini hisoblaymiz. $$\Sigma M_D = -B'\cdot a + M^0 = 0 \quad \text{va} \quad B' = \frac{M^0}{a} = \frac{1}{a}$$

$$\Sigma M_D = -B'\cdot a + M^0 = 0 \quad \text{va} \qquad D' = \frac{M^0}{a} = \frac{1}{a}$$

tekshirish: $\Sigma y = B' - D' = 0$ yoki $\frac{1}{a} - \frac{1}{a} = 0$

S nuqtadagi eguvchi momenti $M_c = B'\cdot a = \frac{1}{a}\cdot a = 1$

Kesimni aylanish burchagining formulasi $\theta_C = \frac{\omega_1 \cdot M_m^0}{EI}$

Buerda $\omega_1 = \frac{Fha}{2}$ - tashqi kuch eguvchi momenti epyurasining yuzasi (*6.65 - rasm*),;

M_M^0 - tashqi kuch eguvchi momenti epyurasi yuzasining (ω_1) og'irlik markaziga to'g'ri keluvchi M_0=1 birlik momenti epyurasining ordinatasi,

$$M_M^0 = B'\cdot\frac{2}{3}\cdot a = \frac{1}{a}\cdot\frac{2a}{3} = \frac{2}{3},$$

Unda $$\theta_C = \frac{F\cdot h\cdot a\cdot 2}{2\cdot EI\cdot 3} = \frac{F\cdot h\cdot a}{3\cdot EI}$$

EGILISHDA STATIK NOANIQ MASALALAR

Real ob'ekt – ko'prikli yuk ko'tarish kranlari, ko'p qavatli uylaming, ko'priklar, mashina va mexanizmlaming ramalari





Tekislikda joylashgan kuchlar sistemasi uchun muvozanat tenglamalarini tuzamiz: $\sum x = 0$;

$$\sum y = 0$$

$$\sum M = 0$$

Balkalardagi noma'lum reaksiya kuchlari soni muvozanat tenglamalari sonidan ko'p, masala statik noaniq

Masalaning statik noaniqlik daraiasi: $S = n - m$

Statik noaniqlikni ochish usullari

- egilgan o'q taqribiy differensial tenglamasi $EI \cdot y'' = M_x$
- deformatsiyani taqqoslash
- Mor integralini tadbiq etish $\Delta = \int \frac{M \cdot M_1 \cdot dx}{EI}$
- Vereshagin qoidasini tadbiq etish $\Delta = \frac{\omega \cdot M_1}{EI}$
- uch moment nazariyasini tadbiq etish

$$M_1\ell_1 + 2M_2(\ell_1 + \ell_2) + M_3\ell_2 = -6\left(\frac{\omega_1 a_1}{\ell_1} + \frac{\omega_2 a_2}{\ell_2}\right)$$

-kanonik tenglamani tuzish $x_1\delta_{11} + \Delta_{1F} = 0$

Oddiy statik noaniq masala



Real ob'ekt - B nuqtada qo'zg'aluvchan sharnirli va S nuqtada bikr mahkam-langan tayanchga tayanuvchi balka:

- muvozanat tenglamalari

$$\sum X = -H_A = 0 \qquad a)$$

$$\sum Y = -R_c - q\ell + B = 0 \qquad б)$$

$$\sum M_C = -M_C + q\frac{\ell^2}{2} - B\ell = 0 \qquad в)$$

Balkaning tayanchlaridagi reaktsiya kuchlarining soni, ularni aniqlash uchun tadbiq etiladigan statikaning muvozanat tenglamalari sonidan kup. Balkani statik noaniqlik darajasi $S = n - m = 4 - 3 = 1$. Noma'lum reaktsiya kuchlarini aniqlash uchun bitta qo'shimcha tenglama tuziladi.

Qo'shimcha tenglamalar tuzish usuli. Balka egilgan o'qining taqribiy differentsial tenglamasini tadbiq etishda balkadan ajratilgan x oraliq uchun deformatsiya tenglamasi tuziladi:

$$EI \cdot y'' = Bx - q\frac{x^2}{2} \quad (g) \qquad \text{(qo'shimcha tenglama)}$$

Taqribiy differentsial tengla-mani birinchi tartibli integ-ral balka kesimining aylanish burchagi tenglamasini beradi	Taqribiy differentsial tenglamani ikkinchi tartibli integrali balkaning salqilik tenglamasini hosil qiladi
$EI \cdot y' = B\frac{x^2}{2} - q\frac{x^{43}}{6} + C \quad (d)$	$EI \cdot y = B\frac{x^3}{6} - q\frac{x^4}{24} + CX + D \, (e)$

bu erda, C va D - integrallash doimiyliklari , balka uchlarini tayanchlarga tayanish shartlaridan topiladi. Masalan, $x = 0$ bo'lsa *(e)* tenglamaning chap tomonida $y = y_B = 0$buladi, chunki balkani B qo'zg'aluvchan sharnirli tayanch nuqtasida vertikal ko'chish chegaralangan. Unda *(e)* tenglamadan $D = 0$ hosil bo'ladi. $x = l$ bo'lsa, *(d)* va *e)* tenglamalarning chap tomonlari nolga tenglashadi, chunki balkani C kesimi bikr mahkamlanganligi uchun $y' = \theta_C = 0$ va $y = y_C = 0$. Unda *(d)* va *e)* tenglamalar ikki noma'lumli ikkita tenglamalar sistemasi ko'rinishiga keltiriladi:

$B\frac{l^2}{2} - q\frac{l^3}{6} + C = 0$ $B\frac{l^3}{6} - q\frac{l^4}{24} + C \cdot l = 0$	Tenglamalar sistemasidan $B = \frac{3}{8}q\ell$ topiladi va statik aniq balka hosil qilinadi.

Deformatsiyalarni taqqoslash usuli



Balkani statik aniqmaslik darajasi ni ochish uchun deformatsiyalarni taqqoslash usulini tadbiq etish – balkani B qo'zg'aluvchan sharnirli tayanch nuqtasida vertikal ko'chishni chegaralanganligiga asoslanadi, ya'ni $f_B = 0$. Bu shart bajarilishi uchun, B nuqtani tashqi q kuch va noma'lum B reaktsiya kuchlari ta'siridan ko'chishlarining yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak: $f_B = f_{Bq} + f_{BB} = 0$

buerda, $f_{Bq} = -\frac{q\ell^4}{8EI}$ - balka B nuqtasini tashqi q kuch intensivligi ta'siridan ushbu kuch yo'nalishidagi ko'chishi;

$f_{BB} = \frac{B\ell^3}{3EI}$ - balka B nuqtasini noma'lum reaktsiya kuchi ta'siridan ushbu kuch yo'nalishidagi ko'chishi

Unda ko'chishlar yig'indisida $B = \frac{3}{8}q\ell$ hosil qilinadi.



Mor integralini tadbiq etish

Balkani statik aniqmaslik dara-jasini ochishda Mor integralini tadbiq etish uchun berilgan balkani yoniga, qiymati va yo'nalishi noma'lum bo'lgan reaktsiya kuchi qo'yilgan nuqtada $F = 1$ birlik kuch bilan yuklangan balka tanlanadi.

Berilgan balka B nuqtasining ko'chishini Mor integrali bilan ifodalaymiz: $f_B = \int_0^\ell \frac{M_x M_o dx}{EI} = 0$

buerda, $M_x = Bx - q\frac{x^2}{2}$ - eguvchi moment va $M_o = Fx = 1 \cdot x = x$- birlik kuch momenti.

Unda $f_A = \int_0^{\ell} \frac{(Bx - q\frac{x^2}{2})dx}{EI} = 0$ tenglamadan $B = \frac{3}{8}q\ell$ hosil qilinadi.



Mor integralini Vereshagin qoidasini tadbiq etib echish. Buning uchun tashqi va birlik kuchlar ta'siridan alohida – alohida moment epyuralari quriladi.

Berilgan balka B nuqtasining ko'chishi Vereshagin qoidasiga asosan quyidagicha topiladi:

$$f_B = \frac{\omega_q \cdot M_q^o + \omega_B \cdot M_B^0}{EI} = 0$$

Buerda, $\omega_q = \frac{1}{3}q\frac{\ell^2}{2}\ell$ - tashqi kuchdan qurilgan eguvchi moment epyurasining yuzasi

$M_q^o = \frac{3}{4}\ell$ - tashqi kuchdan qurilgan eguvchi moment epyurasi yuzasining og'irlik markaziga to'g'ri keluvchi birlik kuch momenti epyurasining ordinatasi;

$\omega_B = \frac{1}{2}B\ell \cdot \ell$ -noma'lum reaktsiya kuchidan qurilgan eguvchi moment epyurasining yuzasi va $M_B^o = \frac{2}{3}\ell$ ushbu yuzaning og'irlik markaziga to'g'ri keluvchi birlik kuch momenti epyurining ordinatasi

Barcha ifodalarni Vereщagin qoidasiga qo'yib, $B = \frac{3}{8}q\ell$-hosil qilinadi. Noma'lum reaktsiya kuchlari hisoblangan balka uchun kundalang kuch va eguvchi moment tenglamalari tuziladi va epyuralari quriladi.

Kundalang kuch $Q = -B + qx$ va eguvchi moment $M_x = Bx - q\frac{x^2}{2}$

buerda $0 \le x \ge \ell$ $x = 0$ bulsa, $Q = -B = -\frac{3}{8}q\ell$ va $M_x = 0$

$x = \ell$ bulsa $Q = \frac{5}{8}q\ell$ va $M_x = -\frac{q\ell^2}{2}$

Balkani uzunligi buylab kundalang kuch tug'ri chiziqli va

eguvchi moment parabola qonuniyatida uzgaradi. $x = \frac{3\ell}{8}$ qiymatda kundalang kuch nolga teng va eguvchi moment maksimumga erishadi.

Uzluksiz balkalar. Statik aniqmas konstruktsiyalarning asosiy ko'rinishlaridan biri uzluksiz balkalardir	
ta'rifi va taxminiy ko'rinishi	Uzluksiz deb, kamida uchta tayanchga tayanuvchi va oraliq sharnirlar bo'lmagan balkaga aytiladi. 
tayanchlarga qo'yilgan talablar	Bo'ylama kuchni qabul qilish uchun uzluksiz balkaning bitta tayanchi qo'zg'almas sharnirli bo'lishi kerak. Harorat ta'si-rida uzunligini o'zgartirishi uchun uzluksiz balkaning qolgan tayanchlarini qo'zg'aluvchan sharnirli qabul qilinadi. Uzluksiz balkaning tayanchlari chapdan o'ngga qarab *0; 1; 2; 3...n-1* va *n +1* sonlari , tayanchlar orasidagi masofalar ℓ_1, $\ell_2 \ell_3,\ldots$ ℓ_n va ℓ_{n+1} bilan belgilanadi. Har bir oraliq uzunligining indeksi o'ng tayanch nomeriga to'g'ri keladi
statik noaniqlik darajasi	Agar balka *n + 1* ta sharnirli tayanchga tayansa, unda gori-zontal reaktsiya kuchini hisobga olmaganda, shuncha vertikal yo'nalgan reaktsiya kuchlari hosil bo'ladi. Noma'lum reaktsiya kuchlarini aniqlash uchun ikkita muvozanat shartini tuzish mumkin. Unda uzluksiz balka *n –1* marotaba noaniqdir. Uzluksiz balkaning aniqmaslik darajasini ochishda asosiy sistemani tanlab, uch moment teoremasidan foydalanamiz.
asosiy sistema-sharnirlar-ga tayangan, tashqi kuch va noma`lum momentlar bilan yuklangan oddiy – balkalar	Uzluksiz balkaga ekvivalent bo'lgan asosiy sistemada sharnirli tayanchlar o'rniga oraliq sharnirlari, noma'lum reaktsiya kuchlari o'rniga esa noma'lum tayanch momentlari qabul qilinadi  Oraliq sharnirlari uzluksiz balkani bir nechta oddiy balkalarga ajratish imkoniyatini beradi, chunki sharnir bosim ta'sirini uzatmaydi

Asosiy sistemada har bir tashqi kuch, o'zi qo'yilgan oraliqqa ta'sir qiladi, ya'ni tashqi kuch balkaning boshqa oraliqlariga ta'siri noma'lum tayanch momentida ifodalanadi

i) 45 kN, -30 kNm; -15 kN; 15 kNm;
j) -2,5 kN; -5 kNm; 25 kN; 7,7 kNm; 17,5 kN;
k) -2,8 kN; -5,6 kNm, 20,6 kN; 12,2 kNm; 12,2 kN;
l) 1,25 kN; 2,5 kNm; -22,5 kN; -191+21 kNm; 21,25 kN.

6.50-misol. 6.68-rasmda ko'rsatilgan ikki qulochli balkalarning statik aniqmasligini oching. tayanch reaktsiyalarni aniqlang, ko'ndalang kuch va eguvchi moment epyuralarini yasang.



6.68-rasm

Sxema	Tayanch reaktsiyalar, kN			Ko'ndalang kuch		Eguvchi moment	
	A	V	S	maks.	min.	maks.	min.
a	-12,7	47,9	24,8	35,2	-24,8	15,4	-15,5
b	32,1	66,3	11,6	32,1	-47,9	25,7	-31,8
v	20,6	68,9	40,5	29,5	-39,4	31,0	-28,2
g	21,4	29,4	19,2	20,8	-19,2	12,7	-13,2
d	37,6	19,0	13,4	17,6	-20	0,90	-20
e	39,9	42,7	-12,6	29,9	-30,1	14,8	-25,2

6.51-misol. Qirqilmagan qo'shtavr balkalar 6.69-rasmda ko'rsatilgandek simmetrik yuk bilan yuklangan. R=60 kN, q=40 kN/m. Istalgan usulda statik aniqmaslikni oching, tayanch reaktsiyalarni xisoblang, Q va M epyuralarni kuring, [σ] = 160 MPa bo'lganda qo'shtavr nomerini tanlang va balkaning o'rta kesimidagi salkilikni xisoblang.

javob:

Sxema	a, kN	V, kN	M_{min}, kNm	M_{max}, kNm	Qo'shtavr	u, sm
a	6,2	36,2	-28,5	58,5	N 27	-1,23
b	25,8	34,2	-20,1	61,9	N 27	0,72
v	83,1	-23,1	-60	9,2	N 27	-0,23
g	16,0	13,20	-73,4	94,8	N 33	-1,4
d	87,1	104,9	-42,9	94,9	N 33	0,79
e	47,7	-7,7	-20	3,1	N 18	-0,30



6.69-rasm.

6.52-misol.

1) Berilgan statik aniqmas balkaning V tayanchdagi reaktiv moment M_B topilsin.

2) M_x va Q_x epyuralari qurilsin

3)Balkani uzunligi bo'ylab salqilik epyurasi qurilsin $\alpha = 1,0$

echish: Berilgan sistemaning ekvivalent sxemasini tanlaymiz. (*6.70–rasm*). Agar balkaning A tayanchdan keyingi oralig ida taqsim-langan kuch intensivligi ta sir qilmasa, asosiy (ekvivalent) sxemani tanlashda, balkaning shu qismi bir-biriga teng va qarama-qarshi yo'nalgan q - kuchlar bilan to'ldiriladi. Birinchi savolga javob topish uchun barcha kuchlardan A tayanch nuqtaga nisbatan olingan momentlar yig'indisini nolga tenglashtiramiz: $\sum M_A = M_B + B \cdot 2\ell - P\ell - P\ell - q\ell^2 + q\frac{\ell^2}{2} = 0$

yoki $$M_B = 2B\ell - 2P\ell - q\frac{\ell^2}{2} \qquad (a)$$

(*a*) tenglamada ikkita noma'lum bo'lib, B-ni topish uchun qo'shimcha tenglama tuzishga to'g'ri keladi. Qo'shimcha tenglama sifatida balkaning istalgan

kesimini salqiligini ifodolovchi universal formulani tuzamiz.

$$f = y_0 + Q_0 x + \frac{1}{EJ}\left[B\frac{x^3}{6} - M_B\frac{x^2}{2} - q\frac{(x-\ell)^4}{24} + A\frac{(x-2\ell)^3}{6} + \right.$$

$$\left. + q\frac{(x-2\ell)^4}{24} - P\frac{(x-\ell)^3}{6}\right] \qquad (6)$$



6.70-rasm

U_0 va Q_0 balkaning boshlang'ich B kesimining salqiligi va aylanish burchagi *(b)* tenglamadagi $x = 0$ va balkaning B kesimda tayanishiga asosan nolga teng, $x = 2\ell$ bo'lsa balkaning A tayanchida salqilik nolga teng.

Demak, $f = f_A = \frac{1}{EI}\left[B\frac{8\ell^3}{6} - M_B\frac{4\ell^2}{2} - q\frac{\ell^4}{24} - P\frac{\ell^3}{6}\right] = 0$, buerda $\frac{1}{EI} \neq 0$, shuning uchun $M_B = \frac{1}{2}\left(\frac{8B\ell^3}{6} - q\frac{\ell^3}{6} - q\frac{\ell^2}{24}\right) = \frac{4B\ell}{6} - \frac{5 \cdot q \cdot \ell^2}{48}$ (*e*)

(a) va *(v)* tenglamalarni o'zaro tenglashtirib V reaktsiya kuchini topamiz:

$$2B\ell - 2P\ell - q\frac{\ell^2}{2} = 4B\ell - \frac{5q\ell^2}{48}$$

bu erdan $B = \frac{115 \cdot 6}{48 \cdot 8} q\ell^2 = \frac{115}{64} q\ell$ ifodani *(a)* tenglamaga qo'ysak, M_e momentni topamiz: $M_B = 2 \cdot \frac{115}{64} q\ell^2 - 2q\ell^2 - q\frac{\ell^2}{2} = \frac{70}{64} q\ell^2$

Endi barcha kuchlardan V nuqtaga nisbatan moment tenglamasini tuzamiz va A tayanch kuchini topamiz:

$$\Sigma M_B = -M_B + P\ell + q2\ell\left(\frac{2\ell}{2} + \ell\right) - A \cdot 2\ell - P \cdot 3\ell - q\ell\left(\frac{\ell}{2} + 2\ell\right) = 0$$

$$A = \frac{-M_B + P\ell + 4q\ell^2 - 3P\ell - 2{,}5q\ell^2}{2\ell} = -\frac{102}{128} q\ell$$

tekshirish: $\Sigma y = B - P - 2q\ell + A + q\ell - P = 0$ yoki

$$B + A - q\ell = \frac{115}{64} - \frac{102}{128} - 1 = 0; \qquad 0 = 0$$

Balkani uchta oraliqga bo'lib M_x va Q_x epyuralarni quramiz:

I–I qirqim $0 \le x_1 \le \ell$ -da $M_{x_1} = Px_1 = q\ell x_1$ va $Qx_1 = -P = -q\ell$

M_x va Q_x tenglamalarini tuzishda balkaning $0 \le x_1 \le \ell$ oraliqdagi taqsimlangan kuch intensivligi q - ning ta'sirini hisobga olmadik. Chunki q kuch faqat (δ) tenglamani keltirib chiqarishda va f salqilikni topishda ishlatiladi.

$x_1 = 0$ bo'lsa $Mx_1 = 0$ va $x_1 = \ell$ da $M_{x_1} = q\ell^2$

II – II qirqim $\ell \le x_2 \le 2\ell$

$$M_{x2} = P \cdot x_2 + A(x_2 - \ell) - q\frac{(x_2 - \ell)^2}{2} \quad \text{va} \quad Q_{x_2} = -P - A + q(x_2 - \ell)$$

III – III qirqim $2\ell \le x_3 \le 3\ell$

$$\dot{I}_{x3} = P_{x_3} + A(x_3 - \ell) - q\ell\left[x_3 - \left(\ell + \frac{\ell}{2}\right)\right] - P(x_3 - 2\ell)$$

$$Q_{x3} = -P - A + q\ell + P = \frac{51}{64} q\ell + q\ell = \frac{115}{64} a\ell$$

III – III qirqimda ko'ndalang kuch o'zgarmas qiymatga ega

$M_{\max}$ - ni II – II qirqimdagi $Q_{x2} = 0$ kesimdan aniqlaymiz

$$O = -P - A + q(x_2 - 2) \quad \text{yoki} \quad O = -q\ell + \frac{51}{64} q\ell + qx_2 - q\ell$$

tenglamadan $x_2 = \dfrac{2q\ell - \dfrac{51}{64}\cdot q\ell}{q} = \dfrac{77}{64}q \approx 1{,}2\ell$

$$M_{x_2} = M_{\max} = q\ell \cdot 1{,}2\ell - \frac{51}{64}q \cdot 0{,}2\ell^2 - q\frac{0{,}04\ell^2}{2} = \frac{65{,}5}{64}q\ell^2$$

Uchinchi savolga javob berish uchun (δ) tenglamadan foydalanamiz

$$f = \frac{1}{EI}\left[B\frac{x^3}{6} - P\frac{(x-\ell)^3}{6} - M_B\frac{x^2}{2} - q\frac{(x-\ell)^4}{24} + A\frac{(x-2\ell)^3}{6} + q\frac{(x-2\ell)^4}{24}\right]$$

$x = 0{,}5\ell,\ f = -\dfrac{38{,}1q\ell^4}{384EI}$ $\quad x = \ell,\ \ f = -\dfrac{95q\ell^4}{384EI}$

$x = 1{,}5\ell,\ f = -\dfrac{93{,}37q\ell^4}{384EI};$ $\quad x = 2\ell;$ $\quad f = 0;\ \ x = 3\ell;\ \ f = \dfrac{412}{384}q\ell^4$



6.53-misol Ikki oraliqli balka, sxemada ko'rsa-tilganidek yuklangan Balkaning statik noaniqlik darajasi topilsin: reaktsiya kuchlari aniqlansin: M va Q epyuralari qurilsin va $h:b=2$ nisbatdan foydalanib balka kesimining o'lchamlari topilsin.

Balkaning materiali - po'lat $[\sigma] = 160mPa$

6.71-rasm. Berilgan va asosiy balkalar, oddiy va berilgan balkalar uchun eguvchi moment epyuralari

echish. Berilgan uzluksiz balka uchun statikaning tenglamalaridan quyidagilarni hosil qilamiz (*6.71– rasm*).

$$\sum x = -x_0 = 0 \qquad (1)$$

$$\sum y = R_0 - F + R_B + R_c - F = 0 \qquad (2)$$

$$\sum M_0 = -F \cdot 2 - R_B \cdot 4 + F \cdot 6 - R_c \cdot 8 = 0 \quad (3)$$

Uchta tenglamada to'rtta noma'lum. Demak, uzluksiz balka bir marotaba statik noaniq. Uzluksiz balkaning statik noaniqlik darajasini ochish uchun uch moment tenglamasidan foydalanamiz. Uzluksiz balkadagi noma'lum reaktsiya kuchlarini noma'lum tayanch momentlari bilan almashtirib, asosiy sistemani hosil qilamiz. Asosiy sistemada o'rta (1) tayanchni ortiqcha bog'lanish deb sharnir bilan almashtiramiz. Sharnir uzluksiz balkani 2 ta oddiy balkalarga ajratadi. Oddiy balkalar uchun eguvchi moment epyuralarini quramiz va ularni kuch yuzalari deb qabul qilamiz. $\omega_1 = \omega_2 = \frac{1}{2} 10 \cdot 4 = 20 kNm^2$ va ω_1 va ω_2 - dan balkalarning chetki tayanch-larigacha bo'lgan masofalarni $-a, b$ deb qabul qilamiz

Keyin uch moment tenglamasini tuzamiz (*6.71 – rasm*)

$$M_0 \cdot \ell_1 + 2M_1(\ell_1 + \ell_2) + M_2 \cdot \ell_2 = -6\left(\omega_1 \frac{a}{\ell_1} + \omega_2 \frac{b}{\ell_2}\right)$$

Uch moment tenglamasida

$M_0 = 0;$ $M_2 = 0;$ $\ell_1 = 4m;$ $\ell_2 = 4m$

$a = 2m,$ $b = 2m$ unda, $M_1 = -7{,}5 kNm$

Oddiy balkalarni M_1- momenti bilan yuklaymiz har bir oddiy balkaning G' tashqi kuchi va M_1 momenti ta'siridan reaktsiya kuchlarini topamiz.

Chap balka, $\sum M_0 = F \cdot 2 - R_B^{ch} \cdot 4 + M_1 = 0;$ $R_B^{ch} = \frac{27{,}5}{4}, kN.$

$$\sum M_B = R_0 \cdot 4 - F \cdot 2 + M_1 = 0; \qquad R_0 = \frac{12{,}5}{4}, kN$$

O'ng balka, $\sum M_B = -M_1 + F \cdot 2 - R_c \cdot 4 = 0;$ $R_c = \frac{12{,}5}{4} kN.$

$$\sum M_c = -M_1 + R_B^y \cdot 4 - F \cdot 2 = 0; R_B^y = \frac{27{,}5}{4}, kN$$

Uzluksiz balkaning reaktsiya kuchlarini yozamiz:

$$R_0 = \frac{12{,}5}{4} = 3{,}125 kN; \qquad R_c = \frac{12{,}5}{4} = 3{,}125 kN$$

Ikkinchi balka: (6.72 – rasm) balkada faqat B va C tayanchlar qoladi va Mo – juft kuch momenti bilan yuklangan.

$$\Sigma M_B = -M_0 + R_C \cdot 2{,}5 = 0; \qquad R_C = 16kN$$

$$\Sigma M_C = -M_0 + R_B \cdot 2{,}5 = 0; \qquad R_B = 16kN$$

Oddiy balkalar uchun eguvchi moment epyuralarini quramiz

Ikkita oddiy balkalardagi kuch yuzalarining teng ta`sir etuvchilarini topamiz.

$$\omega_q = \frac{2}{3}\cdot 10\cdot \ell_1 = \frac{2}{3}\cdot 10\cdot 2 = \frac{40}{3}\,kNm^2; \qquad a_q = 1m$$

$$\omega_1^1 = \frac{1}{2}\cdot 16\cdot 1 = 8kNm^2; \qquad b^1 = \frac{1}{3}\cdot 1 + 1{,}5 = \frac{5{,}5}{3}m;$$

$$\omega_1^{11} = \frac{1}{2}\cdot 24\cdot 1{,}5 = 18kNm^2; \qquad b^{II} = \frac{2}{3}\cdot 1{,}5 = 1m;$$

Uch moment tenglamasini tuzamiz

$$\begin{cases} M_k\ell_1 + 2M_1(\ell_1+\ell_2) + M_2\ell_2 = -6\left(\dfrac{\omega_q\cdot a_q}{\ell_1} + \dfrac{\omega_1^1 b_1^1 + \omega_1^{11} b^{II}}{\ell_2}\right) \\ M_1\ell_2 + 2M_2(\ell_2+\ell_3) + M_3\ell_3 = -6\left(\dfrac{\omega^1\dfrac{2}{3}\cdot 1 - \omega^{II}\left(1+\dfrac{1{,}5}{3}\right)}{\ell_2} + \dfrac{\omega_3\cdot a_3}{\ell_3}\right) \end{cases}$$

Bu erda: $M_k = -F\cdot 0{,}5 = -10kN; \quad M_3 = 0, \quad \omega_3 = 0;$

$$a_3 = 0; \qquad \ell_3 = 0$$

Unda $-10\cdot 2 + 9M_1 + 2{,}5M_2 = -6\left(\dfrac{40\cdot 1}{6} + \dfrac{8\cdot\dfrac{5{,}5}{3} - 18\cdot 1}{2{,}5}\right)$

$$M_1 2{,}5 + 5M_2 = -6\left[\frac{16}{7{,}5} - \frac{18-1{,}5}{2{,}5}\right] \qquad \text{va}$$

$$\left.\begin{aligned} -20 + 9M_1 + 2{,}5M_2 &= -32 \\ 2{,}5M_1 + 5M_2 &= 52 \end{aligned}\right\} \qquad \text{yoki} \qquad \left.\begin{aligned} 9M_1 + 2{,}5M_2 &= -12 \\ 2{,}5M_1 + 5M_2 &= 52 \end{aligned}\right|$$

Ikki noma`lumli, ikkita tenglamalar sistemasidan: $M_1 = -4{,}9kNm$ va $M_2 = 12{,}84kNm$, hosil bo'ladi. M_1 va M_2 - momentlarning qiymatlarini va ishoralarini hisobga olib, oddiy ikki tayanchli balkalarning reaktsiya kuchlarini topamiz (6.72 – rasm).

Chap balka $\sum M_k = -F \cdot 0{,}5 + q\frac{\ell_1^2}{2} + M_1 - R_B^{II} \cdot \ell_1 = 0;\quad R_B^{II} = 17{,}45kN$

$$\sum M_B = -F \cdot (0{,}5 + \ell_1) - q\frac{\ell_1^2}{2} + M_1 - R_k \cdot \ell = 0;\qquad R_k = 42{,}25kN$$

O'ng balka $\sum M_B^y = -M_1 - M_0 - M_2 + R_c \cdot \ell_2 = 0;\qquad R_c = 23{,}096kN$

$\sum M_c = -M_1 - M_0 - M_2 + R_B^y \cdot \ell_2 = 0;\qquad R_B^y = 23{,}096kN$



6.73 – rasm

Uzluksiz balkaning reaktsiya kuchlari:

$R_k = 42{,}55kN$

$R_C = 23{,}096kN$

$R_B = R_B^{II} + R_B^{I}$

$R_B = 17{,}45 + 23{,}096$

$R_B = 40{,}545kN$

Uzluksiz balkaning S qo'zg'almas tayanch nuqtasidagi reaktsiya kuchi

$R_S = 23{,}096kN$

va tayanch momenti

$M_2 = M_S = 12{,}84kNm$

Balkani (6.73 – rasm) oraliqlarga bo'lib M va Q tenglamalarini tuzamiz.

I – I qirqim. $0 \le x_1 \le 0{,}5m\quad M_{x_1} = -Fx_1;\quad Q_1 = -F = -20kN;$

II – II qirqim. $0 \le x_2 \le 2m$

$$M_{x_2} = -F(0{,}5 + x_2) + R_k x_2 - q\frac{x_2^2}{2};\quad Q_2 = -F + R_k - qx_2$$

Q - ko'ndalang kuch abtsissa o'qini kesib o'tish nuqtasida nolga teng, $-F + R_k - qx_2 = 0$ yoki $x_2 = \frac{R_k - F}{q} = 1{,}1275m$. Shu nuqtada balkaning ikkinchi qirqimdagi cho'ziladigan tolalarida eguvchi moment eng katta qiymatga erishadi.

$$0 \le x_1 \le 2m$$

$$M_{e_2} = Bx_1 - q\frac{x_1^2}{2}; \qquad Q_2 = -B + qx_2; \quad va \quad N_2 = 0$$



6.78 – rasm.

SA - oraliqda eguvchi moment M_{eg} egri chiziqli Q_2 to'g'ri chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi Q_2 kuch S nuqtada manfiy ishorali, A nuqtada musbat ishorali qiymatga ega. Ko'ndalang kuch abstsissa o'qini kesib o'tish nuqtasida, ya'ni $Q_2 = 0$ nuqtada M_{eg} ekstremal qiymatga erishadi:

$$Q_2 = -B + qx_1 = 0$$

yoki $x_1 = \frac{B}{q} = 0{,}75m$ $\qquad M_2 = 7{,}5 \cdot 0{,}75 - 10\frac{(0{,}75)^2}{2} = 2{,}8125kNm$

$M_{eg} = 0$ nuqtani topamiz: $M_{eg} = 7{,}5x_1 - 10\frac{x_1}{2} = 0;\ x_1 = 1{,}5m$



6.79 – rasm

6.56-misol. Statik noaniq rama uchun *M, Q* va *N* epyurlari qurilsin (*6.79 – rasm*).

echish: Ramaning *S* tayanch nuq-tasida uchta va *V* nuqtasida ikkita reaktsiya kuchlari hosil bo'ladi. Ramaning aniqmaslik darajasi $S = n - 3 = 5 - 3 = 2$

Masala ikki marotaba noaniq. Noma'lum kuchlarni aniqlash uchun ramani ikkita bog'lanishdan ozod etib, ularning o'rniga birlik kuchlar qo'yiladi.

V tayanch ta'sirini $x_1 = 1$ va $x_2 = 1$

birlik kuchlar bilan almashtirib asosiy sistemani hosil qilamiz (*6.80– rasm*). Kanonik tenglama:

$$x_1\delta_{11} + x_t\delta_{12} + \Delta_{1F} + \Delta_{1q} = 0$$

$$x_1\delta_{12} + x_2\delta_{22} + \Delta_{2F} + \Delta_{2q} = 0$$

